

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKASIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

QARSHI FILIALI

KOMPYUTER INJINIRINGI

fakulteti

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

kafedrası

«Korxona mehnat unumdorligini oshirishda AKTning ahamiyatida veb sayt»

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ Xasanov Dadaxon.

Imzo

Rahbar _____ O'. Turdiyev

Imzo

“Himoyaga ruxsat etildi” kafedrası mudiri _____ I.f.d. X.S. Muxitdinov _____»_____2015y.	Himoya uchun DAKga yuborildi: “Kompyuter injinering” fakulteti dekani _____ S.Davronov _____»_____2015y.
---	---

Qarshi – 2015

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKASIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITYETI
QARSHI FILIALI**

KOMPYUTER INJINIRINGI

fakulteti

Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi

«Tasdiklayman»

_____ *kaf. mudiri*

I.f.d. X.S. Muxitdinov

«_____» _____ 2015y

Bitiruv malakaviy ishi buyicha

TOPSHIRIQ

Talaba Xasanov Dadaxon Jonimqul o'g'li

1.Malakaviy ish mavzusi: Korxona mehnat unumdorligini oshirishda AKTning ahamiyatida veb sayt yaratish

2.TATU Qarshi filialining № _____ buyrug'i bilan _____ da tasdiqlangan

3.Malakaviy ishni topshirish muddati _____ 2015y _____

4. Malakaviy ish uchun ma'lumotlar:

Interaktiv xizmatlar, Elektron tijorat, Elektron xukumat, O'zbekiston Respublikasi hukumatida AKTni joriy etishi Axborot texnologiyalari va web dasturlash fanidan ma'ruza va kitobalar, web saytlarni ishlab chiqish roli va vazifalari, Axborot tizimlarini loyixalash fanidan kitob, maru'za matnlari, video darsliklar, HFX ma'ruzalar matni.

5.Xisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ruyxati):

Kirish, korxona va tashkilotlarda aktning qo'llashning samaradorligi, O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari siyosatini shakllantirish, Elektron hujjat almashinuvi tizimi, HFX, xulosa, adabiyotlar va ilova.

6. Grafik materiallar. Slaydlar:

Bitiruv malakaviy ishni hisobot qismini bajarish davomida jadvalar , web texnologiyalari ma'lumotlar bazasi rasmlardan va chizmalaridan foydalanilgan. Prezentasiya slaydlardan tashkil topgan.

7. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar:

8. Malakaviy ishni bajarilishi bo'yicha kalendar grafik.

No	Malikakiy ishning bo'limlari	Malakaviy ishning hajmi, bet	Umumiy hajmga nisbatan, %	Bajarilganligi to'g'risida belgi	Izoh
I BOB	Korxona va tashkilotlarda aktning qo'llashning samaradorligi			bajarildi	
1.1	Korxonalarda aktning qo'llashning afzalliklari			bajarildi	
1.2	Bozor iqtisodiyotida AKTning ahamiyati			bajarildi	
1.3	Interaktiv davlat xizmatlar			bajarildi	
1.4	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvida «Elektron			bajarildi	

	hukumat»				
II BOB	O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari siyosatini shakllantirish			bajarildi	
2.1	O‘zbekiston Respublikasi hukumatida AKTni joriy etishi			bajarildi	
2.2	Elektron hujjat almashinuvi tizimi			bajarildi	
2.3	Yagona oyna markazlari afzalliklari			bajarildi	
III-BOB	HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI			bajarildi	
3.1	Elektromagnit nurlanishlar			bajarildi	
3.2	Ionlashuvchi nurlanishlar manbalari, turlari va ularning tavsifi			bajarildi	
3.3	Ultrabinafsha va infraqizil nurlanishlar			bajarildi	
	XULOSA			bajarildi	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR			bajarildi	

Malakaviy ish rahbari: _____

O' Turdiev

Topshiriq olingan kun: _____

Talaba: _____

D. Xasanov

KIRISH.....	3
I-BOB. KORXONA VA TASHKILOTLARDA AKTNING QO'LLASHNING SAMARADORLIGI.....	6
1.1. Korxonalarda aktning qo'llashning afzalliklari.....	6
1.2. Bozor iqtisodiyotida AKTning ahamiyati.....	16
1.3. Interaktiv davlat xizmatlar.....	20
1.4. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvida «Elektron hukumat».....	24
II-BOB. O'ZBEKISTONDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH.....	40
2.1. O'zbekiston Respublikasi hukumatida AKTni joriy etishi.....	40
2.2. Elektron hujjat almashinuvi tizimi.....	42
2.3. Yagona oyna markazlari afzalliklari.....	49
III BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	52
3.1. Elektromagnit nurlanishlar.....	52
3.2. Ionlashuvchi nurlanishlar manbalari, turlari va ularning tavsifi.....	56
3.3. Ultrabinafsha va infraqizil nurlanishlar.....	60
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	67
ILOVA.....	70

KIRISH

Bugungi kunda davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini jadal rivojlantirish hamda aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyotining barcha jabhalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishini jadallashtirish, talab va ehtiyoj mavjud dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqilishini ta'minlash, shuning asosida boshqaruvda samaradorlikka erishish, ishlab chiqarishdagi sarf-xarajatlarni qisqartirish, xo'jalik birlashmalari va yirik ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatida aniqlikka erishish, shu orqali ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida, 2014 yil 3 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning real sektoriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shunga muvofiq AKTning korxonalardagi ahamiyati dolzarbligi ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan, ko'p tarmoqli axborot industriyasini tashkil etish, AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy qilish orqali jamiyatimizning ichki mustaxkamligi va ijtimoiy birligini tashkil etish, umumjahon xayot sifati standartlariga chiqish maqsadida, 8 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta farmoni. Prezident va xukumatimizning 17 ta qarori qabul qilindi. Vazirlar Maxkamasining maxsus qarorlariga asosan davlat axborot resurslarining qo'shimcha ro'yxati tasliqlanib, yil boshida 51 ta davlat axborot resurslari va 8 ta davlat axborot tizimlari yaratildi hamla davlat organlarining 49 ta interaktiv xizmatlari turlari tasdiqlandi. Economist Intelligence Unit mutaxassislari tomonidan 60 ta mamlakatda olib borilgan tadkikotlar aynan rivojlangan davlatlardagina AKT iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Ya'ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda AKTning ta'siri

kam bo'lib, uning rivojlanishi faqat ma'lum bir darajaga etganidan keyingina yalpi ichki mahsulotning jon boshiga o'sishini ta'minlashi mumkinligi qayd etildi.

Kunimizda internet – dunyodagi axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalari orasida eng ilg'or va ommabop bo'lib, u, o'sha telegrafdan boshlab ixtiro qilingan barcha axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mantiqiy mohiyatlari – matnli xabar uzatish, tovush uzatish, tasvir uzatish kabilarni, o'zida yagona va yaxlit tizimga mujassamlashtirgan mukammal axborot-kommunikatsiya vositasiga aylandi. O'z ajdodlaridan farqli ravishda, endi internet, bir tomonlama axborot uzatish vositasi bo'lib qolmasdan, interaktiv axborot kommunikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Bu jihatlariga ko'ra, internetni, yozuv va kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bir qatorda, insoniyat tarixidagi uchinchi axborot inqilobi deb qarasak ham yanglishmagan bo'lamiz. Endilikda internet va uning ilg'or texnologiyalari qo'llanilmagan, foydalanilmagan soha «qoloq» sifatiga mansub desak ajablanmang! Zero, internet taqdim etayotgan qulayliklar tufayli, bugun biz, faqat qo'shni viloyatdagi yaqinlarimizgagina emas, balki, boshqa materikdagi tanish-bilishlarimizga ham videoqo'ng'iroqlar qilishimiz, foydalanilgan xizmatlarga haq to'lashimiz, mahsulotlarga buyurtma berishimiz va sotib olishimiz - tobora oddiy kundalik holatga aylanib bormoqda. Internet bizlarga taqdim etayotgan eng oddiy interaktiv xizmat – elektron xat-xabar almashinuv (e-mail yoki, ijtimoiy tarmoqlar)dan boshlab, elektron kutubxona (e-Library), elektron masofaviy ta'lim (e-learning) kabi, hamda, elektron tijorat (e-commerce), elektron to'lovlar (e-Payment), elektron birja (e-Exchange) kabi ilg'or interaktiv xizmat turlari, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga jadallik bilan kirib kelib bo'ldi. Endilikda, tomonlardan birining (yoki ikkisining ham) shaxsan hozir bo'lishi talab etilmaydigan xizmat ko'rsatish sohalarida internetni joriy qilish, ham iqtisodiy ham ma'naviy jihatdan maksimal samaradorlik beradigan darajaga erishmoqda. Umumiy xulosa qilib aytganda, internet, axborot kommunikatsiya texnologiyalari olamidagi o'z ajdodlarining barcha yutuq va imkoniyatlarini o'zida

jamlagan, va ulardan farqli ravishda, bir tomonlama axborot taqdim etish vositasigina bo'lib qolmay, balki, interfaol, ko'p qirrali kommunikatsion vosita sifatida yuksak samaradorlik potentsiali namoyon qilmoqda

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarida joriy etilishi va qo'llanilayotgani o'rganib chiqib ularning afzalliklarini yoritib berish va shu haqda veb sayt ishlab chiqish.

I-BOB. KORXONA VA TASHKILOTLARDA AKTNING QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

1.1. Korxonalarda aktning qo'llashning afzalliklari

Aholi farovonligini yanada oshirish, mamlakatning iqtisobiy barqarorligini mustahkamlashning muhim omili sifatida aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish O'zbekiston hukumati siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga kiradi. Mazkur vazifaning mohiyati, maqsadi va istiqboldagi rivoji O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013 yilning 27 iyunida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida ham o'z ifodasini topdi. Mazkur qarorga muvofiq, 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturning bosh maqsadi iqtisodiyotning barcha jabhalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni rivojlantirish, axborot resurslari, tizimlari va tarmoqlarining yaratilishini jadallashtirish, shuningdek aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari soni va sifatini yanada oshirishdan iborat.

2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shartli ravishda yana ikki dasturga bo'lish mumkin. Birinchi dastur – O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq va infratuzilmasini rivojlantirish bo'lsa, ikkinchi dastur – “elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi kompleksini yaratish.

Telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq va infratuzilmasini rivojlantirish dasturida keng polosali texnologiyalar yordamida simli va simsiz aloqani, ma'lumotlar uzatish hamda ovozli trafik kommutatsiya markazlarini yanada rivojlantirish, magistral telekommunikatsiya tarmoqlarini ta'mirlash va

kengaytirish, multimedia xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur infratuzilmani yaratish vazifalari belgilab olingan.

Misol uchun, 2020 yigacha keng polosali optik aloqa tarmoqlarini rivojlantirish va kengaytirish, undan so'ng mamlakatning barcha hududlarida EVDO, 3G, 4G LTE baza stansiyalarini o'rnatish ishlarini olib borish rejalashtirilgan. Korporativ sohalar uchun multimedia xizmatlarini ko'rsatish studiyalarini ishga tushirish, axborot-ma'lumotnoma markazlari, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash, keshlash markazlari faoliyatini takomillashtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasida "elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab olingan:

"Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari komplekslari va ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar hamda loyihalar ro'yxati Kompleks dasturi tasdiqlangan.

Kompleks dastur – O'zbekistonda "Elektron hukumat" tizimini joriy etishning o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan 22 ta loyiha va 6 ta tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirishning Kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tashkil qilingan.

Shu bilan birga Vazirlik qoshida 2 ta yirik "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazlarini tashkil etish belgilangan.

O'zbekistonda "Elektron hukumat" tizimini joriy etishning o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha grafiklar ishlab chiqilgan. Mazkur grafiklarda loyihalarni amalga oshirish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

Dastlabki loyiha oldi tadqiqotlarni o'tkazish, bunda interaktiv xizmatlar bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish, mavjud holatini o'rganish, va takliflar ishlab chiqish.

Loyihani amalga oshirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

Dastlabki texnik iqtisodiy hisob-kitoblarni ishlab chiqish.

Dastlabki texnik iqtisodiy hisob-kitoblarni ekspertizadan o'tkazish.

Texnik topshiriq ishlab chiqish.

Loyihani amalga oshiruvchini aniqlash bo'yicha tanlovlar o'tkazish.

Loyihani amalga oshirishdan iboratdir.

“Elektron hukumat” tizimini joriy qilishning istiqbolli rejalari doirasida 2014-2016 yillarda idoralararo integratsiyalashgan platformani yaratish loyihasi amalga oshiriladi. Bu platforma barcha davlat organlari axborot tizimlarini birlashtiradi, aholiga ma'lumot olish, ariza topshirish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha idoralar o'rtasida ma'lumot almashishga xizmat qiladi.

Davlat organlarining aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro axborot almashinuvlari, muloqotlari, shuningdek bir qator davlat xizmatlarini ko'rsatish 2013 yilda ishga tushirilgan Yagona portal orqali amalga oshirilmoqda.

Dasturga muvofiq, “elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish maqsadida ochiq kalitlar bazasida Yagoan identifikatsiya tizimini yaratish loyihasini tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslar, transport, kadastr, ko'chmas mulk, ma'lumot va klassifikatorlar jam qilingan milliy ma'lumotlar bazasi va reyestri, axborot tizimlarini rivojlantirish “elektron hukumat”ni samarali etishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Shundan so'ng, aholi va tadbirkorlarga davlat organlari xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish, davlat organlariga o'z faoliyatlarini optimallashtirish, samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi

O‘zbekistonda axborot jamiyatini yanada rivojlantirish, mamlakatning jahon axborot makoniga yanada integratsiyalashuvida yangidan-yangi imkoniyatlarning yaratilishida muhim huquqiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 3 apreldagi “Iqtisodiyotning real sektoriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PP-2158-sonli Qarori ijrosi bo‘yicha NKMK da axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasida quyidagicha ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda:

“Moliyaviy hisob-kitoblar va hisobotlarni kompyuterlashtirish, ishchi-xodimlarni boshqarish, tezkor va ishlab chiqarish-texnologik faoliyat bo‘yicha integrallashtirilgan kompleks axborot tizimini kon-metallurgiya sohasiga joriy qilish”.

Tizimni joriy qilishdan olinadigan natija:

- Moliyaviy, buxgalteriya, statistik va boshqa turdagi hisobotlar bo‘yicha axborotlarni o‘z vaqtida birlashtirish (konsolidatsiya qilish) va ularni topshirish muddatlarini qisqartirish.
- Rahbariyat tomonidan tezkor qarorlar qabul qilish maqsadida, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va NKMK omborxona zahiralarini haqidagi axborotlarni o‘z vaqtida yig‘ish va tahlil qilish.
- NKMK da yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan elektron hujjatlar almashlash tizimini joriy qilish.
- NKMK bo‘linmalarida texnik jihatdan eskirib qolgan hisoblash texnika vositalarini modernizatsiya qilish.
- Server asbob-uskunalarini texnik qayta jihozlash.

• Yoqilg‘i-moylash materiallaridan foydalanilishni transport vositalarini yo‘ldoshli monitoring tizimi negizida nazorat qilish axborot tizimini masshtablashtirish (YOMM Nazorati” AT).

Tizimni joriy qilishdan olinadigan natija:

- dizel yoqilg'isi iqtisod qilinadi;
- yo'l harakati xavfsizligi ta'minlanadi;
- yoqilg'i sarfining solishtirma me'yorini qisqartirishga erishiladi.

NKMK telekommunikatsiyalari tizimini texnik qayta jihozlash

NKMK telekommunikatsiyalari tizimidan olinadigan natija stansiyalar oralig'ini bog'lashni tashkil qilish bo'yicha operatorlar o'rtasidagi shartnomalar, shuningdek, aloqa xizmatlari tariflari hisobiga amalga oshiriladi.

- Tezkor dispetcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish

Tizimni joriy qilishdan olinadigan natija:

- Avariya holatida ishsiz to'xtab turish vaqtini kamaytirish;
- Tezkor to'g'ri qaror qabul qilish;
- Aniq vaqt rejimida texnologik jarayonni monitoring qilish;
- Avariya holatlarini aniqlash.

Hozir zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etayotgan davr hisoblanadi. Respublikamizda AKTni joriy etish va rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan ko'plab shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Aytib o'tish joizki, tugab borayotgan yil sarhisobi bo'yicha AKT sohasini omma orasida tatbiq etish borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini yaratilishi va yuridik, jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarini qonun talablariga muvofiqlashtirilishi mamlakatimizda "Elektron hukumat" tizimini joriy etilishida qo'yilgan muhim qadamlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini jadal rivojlantirish hamda aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni birgina Toshkent viloyati hokimiyati misolida oladigan bo'lsak, viloyatda AKTni yanada rivojlantirish, Internet tarmog'i xizmatlari bilan aholi punktlarini qamrab olishni kengaytirish hamda interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgani e'tiborga molikdir. Jumladan, hokimiyat huzurida faoliyat yuritayotgan Kompyuterlashtirish markazi AKT joriy etish va rivojlantirish borasida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Aynan markaz tomonidan hokimiyatning rasmiy www.toshvil.uz veb-portaliga uzluksiz ravishda ma'lumotlar kiritib borilmoqda. Shu bilan birga, hokimiyatning rasmiy veb-saytini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrda O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 355-sonli qarori talablariga mosligini ta'minlash Kompyuterlashtirish markazining asosiy vazifalaridan biri etib belgilab qo'yilgan.

Bu borada markazning olib borayotgan ishlari natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari holatini baholash natijalariga ko'ra joriy yilning I choragiga nisbatan IV chorak orasidagi farq sezilarli darajada o'sdi. Ya'ni viloyat hokimiyatining www.toshvil.uz veb-portali holati I chorak ko'rsatkichlariga nisbatan joriy yilning 1 dekabr holatiga dactlabki baholash reytingi natijalariga ko'ra 20,9% ga oshdi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etilganlik holatini baholashning NIS.UZ tizimiga Toshkent viloyati hokimiyati tomonidan kiritilgan hisobotlar tahlil etilganda IV chorak hisobot davrida ko'rsatkichlar 11,1 % ga oshgan.

Hokimiyatning rasmiy veb-sayti orqali yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan tadbirkorlik sube'ktlariga bugungi kunga kelib 12 ta bazaviy hamda 36 ta qo'shimcha, jami – 48 ta interaktiv xizmatlarni ko'rsatish o'ylga qo'yilgan. Foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish maqsadida veb-saytning mobil ko'rinishi ham ishga tushirildi.

Hozirgi kunda veb-saytda tadbirkorlik va biznes sube'ktlari uchun tadbirkorlik sube'ktlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, tadbirkorlikni litsenziyalash, savdoga qo'yilgan qiymatli obe'ktlar, ijaraga berilayotgan bin ova inshootlar, auksion savdolariga qo'yilayotgan davlat aksiyalari, viloyatning xorijiy investitsiya va eksport-import salohiyati haqida ma'lumotlar joylashtirilgan bo'lib, doimiy ravishda yangilanib borilmoqda.

Toshkent viloyatida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va yutuqlar uchun joriy yilning sentyabr oyida bo'lib o'tgan "InfoCom-2014" AKT haftaligi yakuniy taqdirlovchi marosimida munosib taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risidagi" 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son Farmoni bilan Pochta va telekommunikatsiyalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasiga nomiga o'zgartirildi va qo'shimcha tariqasida kompyuterlashtiri va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish loyihalarini moliyalashtirilishini qo'llab-quvvatlash masalasi yuklatilgan.

2012 yil 19-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 356-son qarori bilan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamgarmasi to'g'risidagi Nizomi tasdiqlandi aloka va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish soxasida ustuvor va ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan loyixalar, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda uning vazifalari

kengaytirildi.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va Ochiq aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" rahbarlarining o‘rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Jamgarma Kengashi Jamgarmani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi.

Jamgarma Kengashining shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Jamgarma Kengashining raisi hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimlarini joriy etishni, ma’lumotlar uzatishning idoralararo tarmoqlarini tashkil etishni, “Elektron Hukumat” tizimlarini va davlat buyurtmasi doirasida amalga oshiriladigan qidirish tizimlarining milliy segmentini shakllantirish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borishni;

xalqaro standartlarga muvofiq va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollari hisobga olgan holda aloqa, televidenie va radioeshittirish sohasida telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilishni;

Internet tarmog‘ining milliy segmentini shakllantirishni, turli yo‘nalishdagi zamonaviy mahalliy axborot resurslarini, shu jumladan aholining, ayniqsa yosh avlodning axborotga bo‘lgan va intellektual ehtiyojlarini qondirish uchun tarmoq resurslarini shakllantirishni;

Davlat axborot resurslari va ma’lumotlar bazasini shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanishning yagona tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borishni;

Ma’lumotlar uzatish tarmoqlarini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishni,

normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu sohada loyihalarni tayyorlash uchun tadqiqotlar o'tkazishni;

Aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, respublikaning butun hududida ma'lumotlarni uzatish milliy va xalqaro axborot tarmoqlaridan yuqori tezlikda foydalanish sohasida xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqish va joriy etishni

aloqa, kompyuter va tarmoqli texnologiyalar, dasturlashtirish va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishni, shuningdek kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan o'qitish tizimini;

- axborot va pochta xavfsizligi, telekommunikatsiya tarmoqlari tizimini, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish texnologiyalarini joriy etishni, zamonaviy talablar va standartlarga muvofiq axborot va pochta xavfsizligini ta'minlash bo'yicha texnik infratuzilmani rivojlantirishni;
- tanlov asosida tanlab olinadigan aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasini rekonstruktsiya qilish, ularni rivojlantirish va kompyuterlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni;
- e'fira ruxsat berilmagan chiqishlarning va davlat tuzilmalari radio vositalariga to'sqinlik qilishning oldini olish maqsadida radio chastota spektridan foydalanish ustidan davlat nazorati uchun maxsus nazorat-o'lchov texnikasi sotib olish xarajatlarini qisman qoplashni;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sifatli vositalarini va mahalliy dasturiy mahsulotlarni, shu jumladan ijtimoiy-ko'ngilochar va ta'lim yo'nalishidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni;

- qishloq joylarda xizmatlar ko'rsatuvchi aloqa, radioeshittirish va televidenie tashkilotlariga vaqtincha moliyaviy yordam berishni;
O'zbekiston Respublikasining qishloqlari va chekka aholi punktlarining telekommunikatsiya infratuzilmasini maqsadli qayta jihozlash va yanada rivojlantirishni;
- operatorlar va provayderlar tomonidan ko'rsatiladigan universal aloqa xizmatlarini rivojlantirishni;
- dasturlashtirish, tizimli ma'muriyatchilik, kompyuter dizayni, animatsiyalar va axborot texnologiyalarining boshqa yo'nalishlari bo'yicha tanlovlar, musobaqalar va bellashuvlar o'tkazish yo'li bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislar faoliyatini rag'batlantirishni.
- Jamgarma - resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlashga, Jamgarma mablag'laridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan karz oluvchini nazorat qilishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa xizmatlarining barcha turlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashishga, xar yilning 1 dekabridan kechikmay choraklar, tushum manbalari va xarajatlar yo'nalishlari bo'yicha navbatdagi yilga prognoz byudjetni tuzishga xamda uni Jamgarma Kengashi tasdiklashi uchun kiritishga, - majburdirlar.

1.2. Bozor iqtisodiyotida AKTning ahamiyati

Jumladan, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan, ko'p tarmoqli axborot industriyasini tashkil etish, AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy qilish orqali jamiyatimizning ichki mustaxkamligi va ijtimoiy birligini tashkil etish, umumjahon xayot sifati standartlariga chiqish maqsadida, 8 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta farmoni. Prezident va xukumatimizning 17 ta qarori qabul qilindi. Vazirlar Maxkamasining maxsus qarorlariga asosan davlat axborot resurslarining qo'shimcha ro'yxati tasliqlanib, yil boshida 51 ta davlat axborot resurslari va 8 ta davlat axborot tizimlari yaratildi hamla davlat organlarining 49 ta interaktiv xizmatlari turlari tasdiqlandi. Economist Intelligence Unit mutaxassislari tomonidan 60 ta mamlakatda olib borilgan tadqiqotlar aynan rivojlangan davlatlardagina AKT iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Ya'ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda AKTning ta'siri kam bo'lib, uning rivojlanishi faqat ma'lum bir darajaga etganidan keyingina yalpi ichki mahsulotning jon boshiga o'sishini ta'minlashi mumkinligi qayd etildi, masalan:

- AKTning yalpi ichki mahsulotdagi miqdori AQShda 1 foizni, YEvropa Ittifoqida 5,6 foizni;
- AKT rivojlanishiga jalb etilgan investitsiyalar miqdori AKShda yalpi ichki mahsulotning 4,2 foizini, YEvropa Ittifoqida 2,4 foizini;
- AKT sohasida ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan xarajatlar Yaponiyada yalpi ichki mahsulotning 3 foizini, AQShda 2,8 foizini, YEvropa Ittifoqida 2 foizni tashkil etadi

Respublikamizning iqtisodiy sektorida AKTga jalb etilgan investitsiyalar hajmi oxirgi 5 yil mobayyiida tahlil qilingan davlat boshqaruvi organlari va korxonalari bo'yicha (Markaziy bank, Davlat bojxona ko'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, Navoiy TMK, Olmaliq TMK, «O'zbekneftgaz» MXK, «O'zbekenergo»

DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DATK, «O'zmetkombinat» AIChB, Respublika tovar - xom ashyo birjasi) 51,2 mlrd so'mni tashkil etadi

AKTni joriy etish xisobiga iqtisodiy samara har yili jami 16,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida (2011 y.)
Elektron to'lovlar to'g'risida (2005 y.)
Elektron tijorat to'g'risida (2004 y.)
Elektron hujjat aylanishi to'g'risida (2004 y.)
Axborotlashtirish to'g'risida (2003 y.)
Elektron raqamli imzo to'g'risida (2003 y.)
Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida (2002 y.)
Telekommunikasiyalar to'g'risida (1999 y.)
Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida (1994 y.)

1.2.1-jadval.Axborotlashtirish sohasidagi asosiy qonunlar

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvida AKTni qo'llash uning natijaviy samaradorligiii, xususan axborotning o'zaro ta'siri, qayta ishlanishi va izlanishini amalga oshirish uchun vaqt qisqarishi xisobiga unumdorlikni o'rtacha 20 foizga ko'paytirish imkonini yaratadi.

Davlat isloxoatlari amalga oshirilishida xo'jalik boshqaruvi hamda xokimiyat organlarida axborot-texnologiyalarini faol o'zlashtirish va keng joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda, xususan:

davlat boshqaruvi organlarining 97 foizi o'z veb-saytlariga ega bo'ldi, 90 forzida lokal kompyuter tarmoqlari tashkil etildi;

- davlat boshqaruvi va mahalliy xokimiyat organlari xodimlarining kompyuter savodxonligi darajasi 83,9 foizga etdi, (Dastur bo'yicha maqsadli ko'rsatkich - 85 foiz); axborotlashtirish jarayonida mamlaktimiz rahbariyati tomonidan asosiy e'tibor xizmat turlarini kengaytirish va yangi xizmatlarni joriy etishga, ayniqsa qishloq joylarda axborot-servis infratuzilmasini yaratishga qaratilmoqda.

- axborotlashtirish jarayonida mamlaktimiz rahbariyati tomonidan asosiy e'tibor xizmat turlarini kengaytirish va yangi xizmatlarni joriy etishga, ayniqsa qishloq joylarda axborot-servis infratuzilmasini yaratishga qaratilmoqda. Jumladan, aholiga ko'rsatilgan aloqa xizmatlari xajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan ikki barobar o'sdi.

- Internetdan foydalanuvchilar soni 1,9 mln. dan oshdi, 740 ta ommaviy foydalanish punktlari tashkil etildi, 2000 dan ortiq turli servis punktlari (Internet-kafe, so'zlashuv, mobil texnika ulanishi va ta'mirlash shoxobchalari) ishga tushirildi;

- 1187 ta prinsipial yangi axborot-kutubxona axborot-resurs markazlari tashkil topishi natijasida aholiga axborot xizmatlar ko'rsatish sifati tobora ortmoqda.

1187 ta prinsipial yangi axborot-kutubxona axborot-resurs markazlari tashkil topishi natijasida aholiga axborot xizmatlar ko'rsatish sifati tobora ortmoqda. Bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasining Respublika kutubxonasi, viloyatlar ilmiy-universal kutubxonalari, shuningdek, Toshkent shahar markaziy kutubxonasi negizida idoraviy jihatdan

O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligiga bo'ysunuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlari tashkil etilib, kutubxonalar zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlanib, internet tarmog'iga ulash ishlari poyoniga etmoqda;

Ta'lim muassasalari internet tarmog'iga ulanib, shu orqali "ZiyoNET" tarmog'i takomillashtirilmokda. Ushbu tarmoqqa ulanish uchun tanlov e'lon qilingan bo'lib, g'oliblar joriy yil noyabr oyida ma'lum bo'ladi. 2010 yilgacha mazkur tanlov asosida 11600 dan ortiq ta'lim muassasalari (maktab, kollej va liseylar, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy xarakati ob'ektlari va mu Mustaqillik yillari mobaynida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar negizida AKTning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi tufayli O'zbekiston Respublikasining global axborot xamjamiyatida munosib o'rin egallashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. zeylar) "ZiyoNET" tarmog'iga ulanadilar.

1.3. Interaktiv davlat xizmatlari

Interaktiv davlat xizmati (IDX) – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikasiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.

IDX quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizasiya qilish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulalaridan foydalanish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

XIX asrda telegraf va telefonning ixtiro qilinish bilan boshlangan va insoniyat sivilizatsiyasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqqan axborot kommunikatsiya texnologiyalari erasi, bugungi kunda o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqdi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, rivojlanishning turli bosqichlarida, tarkiban kengayib, funksional jihatdan boyib bordi: Telegraf orqali matn jo'natish bilan, qandaydir daqiqalar ichida manzilga yetkazilgan xabar yoki yangilik, o'z vaqtida, oddiy qog'ozli pochta jo'natmasi bilan yuborilgan va manzilga yetgunicha, kamida bir, ikki hafta talab qilingan kommunikatsiya usulini qanchalik inqilobiy tarzda o'rin almashtirgan bo'lsa, uning faqat matn uzatishga

moslashganligi singari kamchiliklarini, Bell ixtiro qilgan telefon apparati to'ldirdi. Popov ixtiro qilgan radioto'lqinlarni masofaga maqsadli uzatish texnologiyasi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari olamida yana bir o'ziga xos burilish yasab berdi. Zvorikinning elektron nur trubkasi jamiyatni axborotlashtirishning eng samarali vositalaridan biri – televideniye davrini boshlab bergan bo'lsa, XX asrning 60-70 yillarida EHMLarning rivojlanishi asnosida yuzaga kelgan, kompyuter va tarmoq texnologiyalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida yuzaga chiqdi.

Biz sanab o'tgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining har biri, o'z zamonasi uchun muhim ahamiyat kasb etgani rost. Ularning har biri jamiyat hayotiga chuqur singib, hattoki, ma'lum bir ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga ham sabab bo'lgan. Xususan, yuqorida biz sanoqdan chetda qoldirgan – matbuotning taraqqiy etishi, jamiyatdagi savodxonlikning ortishiga qanchalik hissa qo'shgan bo'lsa, radio va teletranslaytsiyalar orqali, aholi tezkor usulda muhim siyosiy, madaniy va ma'naviy axborot olish vositasiga ega bo'lgan edi.

Bizning o'z zamonamizda, shundoqqina ko'z o'ngimizda startga chiqqan uyali aloqa vositalari va internet texnologiyalari taraqqiyoti esa, yuqorida sanab, qisqacha ta'riflab o'tilgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'shini qudratiga yanada quvvat bag'ishladi. Ayniqsa internet global tarmog'i kelgusi asrlarda ham, bizning davrimiz uchun o'ziga xos tashrif qog'ozi sifatida namoyon bo'lsa ajab emas.

Zero, bugungi kunimizda internet – dunyodagi axborot almashinuvi va kommunikatsiya vositalari orasida eng ilg'or va ommabop bo'lib, u, o'sha telegrafdan boshlab ixtiro qilingan barcha axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mantiqiy mohiyatlari – matnli xabar uzatish, tovush uzatish, tasvir uzatish kabilarni, o'zida yagona va yaxlit tizimga mujassamlashtirgan mukammal axborot-kommunikatsiya vositasiga aylandi. O'z ajdodlaridan farqli ravishda, endi internet, bir tomonlama axborot uzatish vositasi bo'lib qolmasdan, interaktiv axborot kommunikatsiya vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Bu jihatlarga

ko'ra, internetni, yozuv va kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bir qatorda, insoniyat tarixidagi uchinchi axborot inqilobi deb qarash ham yangilashmagan bo'lamiz. Endilikda internet va uning ilg'or texnologiyalari qo'llanilmagan, foydalanilmagan soha «qoloq» sifatiga mansub desak ajablanmang! Zero, internet taqdim etayotgan qulayliklar tufayli, bugun biz, faqat qo'shni viloyatdagi yaqinlarimizgagina emas, balki, boshqa materikdagi tanish-bilishlarimizga ham videoqo'ng'iroqlar qilishimiz, foydalanilgan xizmatlarga haq to'lashimiz, mahsulotlarga buyurtma berishimiz va sotib olishimiz - tobora oddiy kundalik holatga aylanib bormoqda. Internet bizlarga taqdim etayotgan eng oddiy interaktiv xizmat – elektron xat-xabar almashinuv (e-mail yoki, ijtimoiy tarmoqlar)dan boshlab, elektron kutubxona (e-Library), elektron masofaviy ta'lim (e-learning) kabi, hamda, elektron tijorat (e-commerce), elektron to'lovlar (e-Payment), elektron birja (e-Exchange) kabi ilg'or interaktiv xizmat turlari, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga jadallik bilan kirib kelib bo'ldi. Endilikda, tomonlardan birining (yoki ikkisinin ham) shaxsan hozir bo'lishi talab etilmaydigan xizmat ko'rsatish sohasida internetni joriy qilish, ham iqtisodiy ham ma'naviy jihatdan maksimal samaradorlik beradigan darajaga erishmoqda. Umumiy xulosa qilib aytganda, internet, axborot kommunikatsiya texnologiyalari olamidagi o'z ajdodlarining barcha yutuq va imkoniyatlarini o'zida jamlagan, va ulardan farqli ravishda, bir tomonlama axborot taqdim etish vositasigina bo'lib qolmay, balki, interfaol, ko'p qirrali kommunikatsion vosita sifatida yuksak samaradorlik potentsiali namoyon qilmoqda

Interaktiv davlat xizmatlarini joriy qilish. Bugungi kunda 94 turdagi interaktiv xizmatlar tasdiqlangan bo'lib, davlat organlari tomonidan Internet tarmog'ida 384 ta xizmat ko'rsatilmoqda

Davlat organlari axborot resurslari – davlat axboroti manbai sifatida

Asosiy maqsadlar:

Fuqarolarning davlat organlari faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni olish bo'yicha huquqlarini ta'minlash

Fuqarolarni davlat organining faoliyati va qarorlari haqida tez, haqqoniy va ob'ektiv ravishda xabardor qilish

Asosiy talablar:

Taqdim etilayotgan axborot davlat organi faoliyatini ob'ektiv (haqqoniy) yoritilishini ta'minlashi kerak

Axborot ishonchlik bo'lishi kerak

Saytda joylashtiriladigan axborot OAVda nashr etiladigan axborot bilan teng kuchga ega

Saytda joylashtiriladigan asosiy axborotga kirish barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun erkin va bepul bo'lishi kerak

Bazaviy interaktiv Davlat xizmatlari reestri

Yo'nalishlar bo'yicha filtratsiya ▾	Davlat organlari bo'yicha filtratsiya ▾	Barchasini ko'rsatish >
-------------------------------------	---	-------------------------

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tuzilmasi, tarkibi, funktsiyalari va asosiy faoliyati, ularda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida axborotlar taqdim etish.
Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish
Tug'ilganlikni, o'limni, nikohni ro'yxatdan o'tkazish, nikohni bekor qilish, otalikni belgilash, farzandlikka olish, familiyani, ismni va ota ismini o'zgartirish tartibi to'g'risida axborotlar taqdim etish
O'zbekiston Respublikasi FHDYO hududiy organlari ro'yxatini taqdim etish
Davlat notarial idoralari hamda xususiy amaliyot bilan shug'ullanayotgan notariuslar idoralari reestri to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish
Bajarish uchun mas'ullar: Adliya vazirligi
Havolalar: Davlat notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarning davlat reestri

1.3.1-rasm. Davlat xizmatlari reestri

1.4. **Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvida, «Elektron hukumat»**

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan internetning muhim iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga allaqachon kirib kelib, o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsata boshlaganiga urg'u berdik. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy soha va iqtisodiyotning turli bo'g'inlarini boshqarish, rivojlantirish va samaradorligini o'ttirish maqsadida, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbqiq etish – bugungi zamon talabi bo'lgan dolzarb masaladir. Bunday sharoitda, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kuchli potensialidan nafaqat ijtimoiy yoki iqtisodiy sohalar, balki, siyosiy sohada ham foydalanish, uni davlat boshqaruvi, davlat va jamiyat munosabatlari hamda, fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish kabi muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uchun qo'llash ayni muddao hisoblanadi. Davlat hokimiyati ichki tarmoqlari boshqaruvi (markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlar, davlat tashkilot va muassasalari o'rtasidagi o'zaro uzviylik) va davlat tashkilot va muassasalarining fuqarolar hamda biznesga ko'rsatadigan xizmatlarining samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qulayliklari va imkoniyatlaridan foydalanish – zamonaviy ilg'or yo'nalishlardan biri bo'lib, xalqaro leksikonda u «Elektron hukumat» (e-government) deb yuritiladi.

«Elektron hukumat» tushunchasi. Elektron hukumat tushunchasi dastavval XX asrning 90-yillari boshida AQSHda paydo bo'lgan. Mazkur tushuncha, 1991 yilda, AQSHning o'sha vaqtdagi prezidenti Bill Klinton davrida, internet va umuman axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlantirishga davlat darajasida, alohida e'tibor qaratgan paytda yuzaga kelgani ma'lum. Klinton ma'muriyati davrida davlat idoralari hujjatlari orqali OAVga tarqalgan «Elektron hukumat» tushunchasi, 1999 yildan boshlab, okean orti va Yevropaning yetakchi nashrlarida davriy ravishda va tez-tez uchray boshladi. Aynan shu davrda, «Elektron hukumat» va unga bog'liq tamoyillar tahlil va tadqiq qilingan ilmiy ishlar ham paydo bo'ldi. Misol uchun: Bellami Teylorning «Axborot asrida

hukumat boshqaruvi» asarida davlat boshqaruviga elektron axborot kommunikatsiya vositalari, xususan internetni tadbiq etishning nazariy masalalari ko'rib chiqilgan bo'lsa; 2002 yilda chop etilgan «Elektron hukumat strategiyasini baholash mezonlari: strategik tahlil xulosasi» nomli risolada, elektron hukumatning joriy qilishning istiqbollari, uning texnik va ijtimoiy talablari asosida tahlil qilingan edi. Keyingi davrda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari borasida rivojlangan, yetakchi davlatlar hukumatlarining maxsus qarorlari orqali amaliy ishga o'tildi. Davlat boshqaruvi sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar ham qo'llab quvvatlay boshlashdi. Ularning har birida, mazkur tushunchaning o'ziga xos talqinini ko'rish mumkin, masalan:

«Elektron hukumat» tushunchasiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsifi⁴:

Elektron hukumat – axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z ichki va tashqi islohotlarini amalga oshirishda foydalanadigan hukumatdir.

Elektron hukumat tushunchasiga Yevropa Ittifoqining tavsifi⁵:

Elektron hukumat bu – axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi organlarida qo'llash bo'lib, tashkiliy o'zgarishlar hamda yangicha malakalarning joriy etilishi bilan uyg'un holda, davlat xizmatlarini va demokratik jarayonlarni takomillashtirish hamda, davlat siyosati institutlarini qo'llab quvvatlashga aytiladi.

1.4.1-rasm. Elektron hukumat tushunchasi

Elektron hukumat tushunchasiga Jahon Bankining tavsifi¹:

«Elektron hukumat» atamasi - fuqarolar, biznes va hukumatning turli tarmoqlari bilan munosabatlarni isloh qilishga qodir axborot texnologiyalarining Davlat organlari tomonidan, qo'llanishiga aytiladi. Bu texnologiyalar turli maqsadlarda xizmat qilishi mumkin: fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning takomillashirilishi; ishlab chiqarish va biznes bilan o'zaro munosabatlarning yaxshilanishi va yanada samarali davlat boshqaruvi. Natijada, korrupsiyaning qisqarishi, shaffoflikning ortishi, foydalanuvchilarga keng qulayliklar, daromadlarning ortishi va / yoki xarajatlarning kamayishi kabi afzalliklarning amalga oshishi mumkin.

1.4.2-rasm. Elektron hukumat Jahon Banki tasnivi

Ko'rinib, turibdiki, «Elektron hukumat» tushunchasiga nisbatan nufuzli xalqaro tashkilotlarning yondoshuvida, ham umumiylik jihatlari, ham farqlar mavjud. Umuman olganda, dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida «Elektron hukumat» tushunchasi jamoatchilik orasida munozaralarga sabab bo'layotganini ta'kidlash joiz. Xususan, «Elektron hukumat» so'zining ingliz tilidagi muqobili – «Electronic government» so'zi, ko'pchilik o'ylagani singari, hukumat, ya'ni, davlat boshqaruvining, ijro etuvchi markaziy hokimiyati tushunchasinigina taalluqli emas, balki kengroq ma'noda bo'lib, ya'ni, u – davlat boshqaruvi organlarining o'z funksiyalarini amalga oshirishda elektron axborot kommunikatsiya vositalari potensialidan keng foydalanishini nazarda tutadi. Shu tufayli, mutaxassislar orasida «elektron hukumat» dan ko'ra, «elektron boshqaruv» tushunchasini kiritish haqida g'oyalar ham mavjud.

Elektron Hukumat Maqsad va vazifalar. Mazkur ikki tushuncha va atama yuzasidan davom etayotgan munozaralarga qaramasdan, amaliyotda ularning har ikkalasi odatda mazmunan bir-birini to'ldiruvchi so'zlar sifatida qo'llanilishi kuzatilmoqda. Chunki ularning har ikkisi ham umumiy ustuvor muddaolarni

ifodalaydi: Hukumat organlari va davlat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini yanada o'ttirish; fuqarolarga va biznesga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini interfaol usulda, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali ko'rsatish; umuman olganda esa demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari potensialidan unumli va keng foydalanish. Bunda «Elektron hukumat», davlat boshqaruvi sohasining alohida qismi yoki hukumatning yangicha shakli sifatida tasavvur qilinishi emas, balki, Davlat boshqaruvining an'anaviy yo'nalishlariga qo'shimcha, tarkibiy qism sifatida kiritilishi nazarda tutiladi. Mazkur tamoyillarning har qanday kombinatsiyasi uchun, «Elektron hukumat»ga qo'yiladigan quyidagi asosiy talablarni, boshqacha aytganda, elektron hukumatni joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlarni keltirib chiqarish mumkin:

Jismoniy va Yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining yuqori sifat darajasida operativ ravishda, yagona standartlar asosida ko'rsatilishi;

Davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda, fuqarolarning davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga oid axborotlar bilan uzluksiz ta'minlanishi;

Davlat hokimiyatining ichki strukturalarida, hukumat organlarining turli bo'g'inlarida, tashkilot va muassasalarda idoralar aro ichki munosabatlarda samaradorlikning ortishi;

Geografik faktor; hujjat aylanishi va almashinuvi kabilarda sarf-xarajatlarni minimallashtirish. Elektron hujjat almashinuvi tizimini joriy etish.

Mazkur konsepsiyalarning amaliyotda o'z aksini topishi natijasida, davlat va jamiyat munosabatlarida, davlat boshqaruvi ichki strukturalarida quyidagicha samaradorlik va qulayliklarga erishish maqsad qilinadi:

Fuqarolarga va biznesga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarida samaradorlik ortadi, ya'ni, fuqaro davlat idorasiga ariza, shikoyat yoki taklif bilan to'g'ridan-to'g'ri, elektron shaklda murojaat etishi va javob olishi mumkin bo'ladi. Davlat xizmatlaridan foydalanishda tayyor hujjat shakllarini (blankalarni) on-layn to'ldirish va topshirish, zaruriy ma'lumotnoma, ruxsatnoma va boshqa hujjatlarni

on-layn tarzda shakllantirib, yuklab olishi, chop etishi kabi interaktiv xizmatlardan foydalanishi mumkin bo'ladi.

Standartlashtirilgan va avtomatlashtirilgan interaktiv xizmatlardan foydalanib, yuridik shaxs, o'zi uchun zaruriy davlat xizmatlarida on-layn foydalanishi imkoni paydo bo'ladi. Masalan, yuridik shaxs, o'z faoliyatini yuritish uchun maxsus ruxsatnomalar (litsenziya, patent, bojxona ko'rigi kabi) olishi yoki, davlat organlariga hisobot (masalan soliq deklaratsiyalari) topshirishi uchun tegishli portaldan foydalanib, tezkor va qulay ravishda ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Bunda to'lovlarni ham on-layn usulda, internet banking yoki SMS-banking kabi xizmatlardan foydalanib amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Davlat boshqaruvi ichki strukturasi – vazirliklar, idoralar, tashkilot va muassasalar, markaziy, hududiy va mahalliy hokimiyatlar, orasida elektron hujjat almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Idoralararo munosabatlarda yaxlit interaktiv axborot tizimini qo'llash orqali, o'zaro aloqa va ichki monitoring tizimi shaffoflanadi.

Masofa va vaqt faktori. Fuqaro, o'zi uchun zaruriy davlat xizmatidan foydalanishda yoki, davlat idorasiga murojaat etishda, mazkur idora joylashgan manzilga shaxsan tashrif buyurishi, idora mas'ul xodimi, masalan rahbarini qabul vaqtini poylashi, kutib o'tirishi kabi holatlar bartaraf etiladi. Qolaversa, bu orqali mansabdor shaxslarning tamagirlik qilish holati cheklanadi.

Qolaversa, elektron hukumatni joriy qilish orqali erishilishi ko'zda tutiladigan yana bir qancha iqtisodiy va ijtimoiy naf omillari ham mavjudki, ularni ham o'z o'rnida e'tirof etib o'tish zarur: elektron hujjat almashinuvi tufayli, qog'oz iste'moli qisqaradi, ya'ni qog'oz mahsuloti tejaladi; hujjat almashinuv tizimida vaqt tejaladi, ya'ni elektron hujjat axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali yuborilganda, mazkur hujjat shu lahzaning o'zidayoq belgilangan manzilda hoziru-nozir bo'ladi. Davlat idorasiga murojaat etuvchi fuqaro, dastlabki zaruriy hujjatlarni to'plamini yoki murojaatnomani bir marotaba shakllantirib, kerakli manzilga yo'llaydi, murojaatni ko'rib chiqish va unga munosabat bildirishning keyingi bosqichlari maxsus semantik tizim asosida,

avtomatlashtirilgan ko'rinishda, murojaat etuvchining ishtirokisiz amalga oshadi. Ya'ni, murojaat etuvchi fuqaro, zaruriy hujjatlar to'plamini, yoki, murojaatnomani ko'tarib, idorama-idora sarson yurishi, murojaatni ko'rib chiqishda jarayonining kuryeri sifatida qatnashishi, bu orqali, vaqt, transport, kanselyariya va boshqa turdagi xarajatlarga tushishi oldi olinadi. Bunda murojaatni ko'rib chiqishi va unga javob berishi zarur bo'lgan idoraning mazkur murojaatga nisbatan munosabati yuqori tashkilot tomonidan nazorat qilib turiladi, agar tegishli idora qonunda belgilangan muddatda murojaatni ko'rib chiqmasa yoki unga javob bermasa, yuqori davlat tashkiloti tomonidan chora ko'rilishi mumkin bo'ladi. Murojaatni ko'rib chiqish jarayoni qaysi bosqichga yetgani haqida fuqaro maxsus axborot kommunikatsiya vositalari, masalan, elektron pochta yoki SMS orqali xabardor bo'lib turishi imkoniyati yaratiladi.

Ilm-fan va texnikaning barcha yo'nalishi kabi axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi ham tinimsiz rivojlanishda ekanligini nazarda tutsak, elektron hukumat tizimi ham mazkur sohaning keyingi yangi yutuqlarini o'zida joriy etish orqali yanada takomillashib, mukammallashib borishi tabiiy. Shunga ko'ra kelajakda, elektron hukumat bizning maqolamizda nazardan chetda qolgan yoki, tasavvurimizga sig'magan yangicha qulayliklar va foydali xususiyatlarga ega bo'lsa ajab emas. Umuman olganda esa, xorijiy davlatlarning ayrimlarida, zamonaviy elektron hukumat rivojlanishi tendensiyalari, vaqti kelib, hattoki saylovlar tizimini ham interaktiv, on-layn ko'rinishga kelishini bashorat qilishmoqda. Balki bu tasavvur haqiqatdan yiroqdir, lekin, elektron hukumatni joriy qilish va uni takomillashtirish borasida, o'sha xorijiy davlatlarning ayrimlaridagi ilg'or tajribalarni, va uning rivojlanish bosqichlari bilan tanishib chiqsak foydadan holi bo'lmaydi.

Elektron hukumat: Xorij tajribasi

Maqolamiz avvalida aytib o'tganimizdek, elektron hukumat va uni amaliyotga tadbiq etish jarayoni jahon mamlakatlarida 90-yillar oxiri va 00-yillarning boshida boshlangan. Bugungi kunda elektron hukumat tizimini joriy

qilish jarayoni, jahon miqyosida, ko'plab davlatlarda jadal tus olgan. Yetakchi, rivojlangan davlatlarning ayrimlarida mazkur jarayon o'zining nisbatan yetuk bosqichiga yetgan bo'lsa, aksariyat davlatlarda elektron hukumat tizimi takomillashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. So'zimizga yaqin va uzoq xorij mamlakatlari tajribasidan misol keltirsak: shimoliy qo'shnilarimiz – Qozog'istonda 2004 yildan boshlab elektron hukumat shakllantirila boshlangan. www.egov.kz qozoq qardoshlarimizning «e-akimat» dasturi doirasida «e-litzenziyalash», «e-notariat», «e-davlat xaridlari» kabi ichki strukturalarda, 126 xildan ortiq davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatiladi. Qozog'iston fuqarolari, mazkur tizim orqali, soliqlar, davlat yig'implari, jarima va bojxona to'lovlarini on-layn to'lashlari, davlat idoralariga yozma murojaat etishlari, tashkilot, muassasa va idoralarning rahbarlari yoki boshqa mas'ul xodimlari qabuliga on-layn ro'yxatdan o'tishlari va ular bilan belgilangan muddatda videoqo'ng'iroqli aloqaga chiqishlari mumkin. Rossiyada, elektron hukumat tizimi borasida amaliy ishlar 2008 yilda boshlangan edi. AQSHda esa bu borada nisbatan erta – 2002 yildayoq ishga kirishilgan. Yevropa ittifoqi esa, «eEurope» tashabbusi orqali, 2000 yilda ish boshlagan edi.

Bu yo'nalishda, BMT jahonning 193 davlati orasida, elektron hukumatning amaliyotga joriy qilinish va uning sifat ko'rsatkichi borasida maxsus monitoring va reyting tizimi yuritib boradi. Reyting natijalari har 2 yilda e'lon qilib boriladi va 2012 yil mart oyida e'lon qilingan «E-Government Survey 2012: E-Government for the People» monitoring va reyting natijalariga ko'ra, jahon davlatlari orasida quyidagi Top-30talik yaqqol yetakchilik qilmoqda:

1.4.1-jadval. Elektron hukumat qo'llash darajasidagi o'rni

Reytingdagi o'rni	Davlat	Umumiy indeks
1	Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya)	0.9283
2	Gollandiya	0.9125

3	Buyuk Britaniya	0.8960
4	Daniya	0.8889
5	Amerika Qo'shma Shtatlari	0.8687
6	Fransiya	0.8635
7	Shvetsiya	0.8599
8	Norvegiya	0.8593
9	Finlyandiya	0.8505
10	Singapur	0.8474
11	Kanada	0.8430
12	Avstraliya	0.8390
13	Yangi Zelandiya	0.8381
14	Lixtenshteyn	0.8264
15	Shveytsariya	0.8134
16	Isroil	0.8100
17	Germaniya	0.8079
18	Yaponiya	0.8019
19	Lyuksemburg	0.8014
20	Estoniya	0.7987
21	Avstriya	0.7840
22	Islandiya	0.7835
23	Ispaniya	0.7770
24	Belgiya	0.7718

25	Sloveniya	0.7492
26	Monako	0.7468
27	Rossiya	0.7345
28	BAA	0.7344
29	Litva	0.7333
30	Xorvatiya	0.7328

Mazkur reytingda qatorasiga ikkinchi marotaba, demakki, so'nggi 4 yillikda Janubiy Koreya davlatining yetakchilik qilayotganini alohida e'tirof etish joiz. Rasmiy Seulning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari borasidagi salmoqli salohiyati va fuqarolarga ko'rsatayotgan interaktiv davlat xizmatlari darajasi, BMTning soha ekspertlari tomonidan 0.9283 indeksi bilan baholangan.

Umuman olganda esa, mazkur reytingni shakllantirishda BMT tomonidan, muayyan davlatdagi elektron hukumat tizimining rivojlanganlik darajasi quyidagi 3 asosiy mezon bo'yicha baholanadi:

- 1) Davlat tomonidan o'z fuqarolariga ko'rsatilayotgan on-layn interaktiv xizmatlarning miqyosi va sifati;
- 2) Axborot kommunikatsiya texnologiyalari infrastrukturasi rivojlanish darajasi;
- 3) Inson kapitali.

Davlat tomonidan o'z fuqarolariga ko'rsatilayotgan on-layn interaktiv xizmatlarning miqyosi va sifati, kontent, interaktiv xizmatlarning foydalanish imkoniyati darajasi va sifatiga ko'ra, davlat hukumatining asosiy portali, davlat xizmatlari ko'rsatiladigan asosiy portal, va turli vazirlik hamda idoralarning saytlarini baholash orqali aniqlanadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari infrastrukturasi rivojlanish darajasi esa, 100 nafar aholi soniga nisbatan simli internet tizimining doimiy

abonent-foydalanuvchilari miqdori; 100 nafar aholi soniga nisbatan statsionar va mobil aloqa vositalari foydalanuvchilari miqdori; shuningdek, 100 nafar aholi soniga nisbatan, Keng Polosali Internetga ulanish qurilmalari soniga qarab belgilanadi.

Inson kapitali borasida esa, aholining savodxonlik darajasi, hamda, turli o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan fuqarolarning umumiy aholi soniga nisbatan % miqdoridagi ulushi inobatga olinadi.

Ko'rib turganingizdek, mezonlar asosli bo'lsa-da, baribir, fikrimcha birmuncha nisbiy. Biroq ularda milliy elektron hukumat tizimi uchun qo'llash maqsadida, ko'rib chiqsa va o'rgansa arziydigan ko'plab sifatlar, o'zlashtirish mumkin bo'lgan uzoq yillik tajribalar mavjud. Lekin jahon tajribasida shakllanib kelgan umumiy standartlarning eng asosiysi bu interaktiv xizmatlarning ma'lum tamoyillar asosida tizimlanishidir:

Elektron hukumat: Texnologik tamoyillar.

Jahon tajribasida elektron hukumat tizimi quyidagi asosiy texnologik tamoyillar poydevorida shakllangan: (shu jumladan O'zbekiston elektron hukumat tizimi ham).

- 1) G2G (Government to Government) – Davlat–davlatga;
- 2) G2C (Government to Citizens) – Davlat fuqarolarga;
- 3) G2F (Government to Foreigners) – Davlat xorijliklarga;
- 4) G2B (Government to Business) – Davlat biznesga.

Ba'zi davlatlarning elektron hukumat tizimi shuningdek quyidagi tarmoqlarga ham ega: G2S (Government to Science) – Davlat–Ilm-fanga; G2N (Government to third sector) – Davlat-uchinchi sektor.

Endi mazkur yo'nalishlarni batafsil tahlil qilsak:

1) G2G (Government to Government) – Davlat–davlatga – bunda Davlat boshqaruvi apparati ichki strukturalari, markaziy va mahalliy hokimiyatlar, turli davlat idora, tashkilot va muassasalari orasidagi o'zaro munosabatlarda elektron hukumat tizimini joriy etish, elektron hujjat aylanishi, davlat organlari

faoliyatining shaffofligi ortishi, doimiy monitoring va hisobot shakllari kabilar amalga oshiriladi.

2) G2C (Government to Citizens) – Davlat fuqarolarga – bu tizimda esa, fuqarolar, yagona davlat interaktiv xizmatlari portali orqali, o'zlarining davlat organlariga ariza, shikoyat yoki taklif kabi murojaatlarini elektron tarzda yuborishlari va ularga javob olishlari, turli xil davlat xizmatlaridan foydalanishlari, ya'ni, masalan, rasmiy hujjatlarning elektron nusxalarini shakllantirib olishlari, turli xil ma'lumotnoma, xabarnomalarni olishlari, shuningdek turli xil to'lovlar bo'yicha tranzaksiyalarni on-layn usulda amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

3) G2F (Government to Foreigners) – Davlat xorijliklarga – bu tizimda, Davlat va xorijlik shaxslar o'rtasida, milliy qonunchilik va xalqaro hujjatlarga tayangan holda interaktiv xizmatlar ko'rsatilishi nazarda tutiladi. Masalan, viza masalalari, investitsiyalar, ta'lim va turizm sohalariga oid xizmatlar ko'rsatilishi nazarda tutiladi.

4) G2B (Government to Business) – Davlat biznesga – mazkur tizim esa, yuridik shaxslar, ishbilarmonlar va tadbirkorlar uchun ruxsatnomalar olish, turli xil rasmiy jarayonlarni interaktiv usulda soddalashtirilgan tarzda amalga oshirish, shuningdek, davlat yig'implari, to'lovlar va ho kazolarni on-layn amalga oshirish, hisobotlar va rasmiy murojaatlarni on-layn yuborish imkonini berishi ko'zlanadi. Elektron hukumat: O'zbekiston modeli.

Keling endi, elektron hukumatning vatanimiz O'zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari bilan tanishib chiqamiz:

Tarix, Me'yoriy-huquqiy baza,

Vatanimizda elektron hukumat va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish tarixi 2002 yildan boshlangan edi. 2002 yil 30 mayda imzolangan PF-3080, «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Prezident Farmoni bu borada dastlabki qadamlardan biri bo'lgan edi. Mazkur farmon orqali, O'zbekistonda axborot

kommunikatsiya texnologiyalari amaliyotga joriy etishni yanada chuqurlashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari potensialidan keng foydalanish borasida me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi boshlangan, yurtimizda elektron hukumat tizimining keyingi istiqboli uchun zamin yaratilgan edi. Albatta, har qanday ishda bo'lgani kabi, elektron hukumatni amaliyotga tadbiq etishda ham, qonunchilik, me'yoriy-huquqiy baza eng asosiy o'rin tutadi. Bu borada, 2003 yil so'ngida qabul qilingan «Axborotlashtirish haqida» va «Elektron raqamli imzo haqida»gi qonunlar muhim qadam bo'lib xizmat qildi. 2007 yil esa, O'zbekistonda elektron hukumatni shakllantirish borasida muhim amaliy qadamlar tashlangan, e'tiborga molik yil bo'ldi. Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan (VMQ №181, 23.08.2007), Davlat organlarining o'zaro hamda, fuqarolar va muassasalar bilan munosabatlarini, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etish orqali yo'lga qo'yish borasida ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi. Maxsus nizom orqali, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llash orqali ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlarining standartlarini yaratish va asosiy davlat interaktiv xizmatlari ro'yxati qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil, 17 dekabrda №259 qarori bilan, hukumat portalida axborot taqdim etish va interaktiv xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. 2009 yil, 21 apreldagi, №116 hukumat qarori bilan, davlat organlarining internet tarmog'ida taqdim etishi lozim bo'lgan, 9 xil tematikaga birlashtirilgan, jami 102 xil axborot turlari ro'yxati, shuningdek, ularning yangilanib turishi muddatlari o'rnatildi.

Umuman olganda esa, 2002-2012 yillarda, O'zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish, interaktiv davlat xizmatlari va elektron hukumatni shakllantirish borasida 14 ta qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbek elektron hukumatini shakllantirishning huquqiy asoslari borasida 2012 yil eng katta burilish yili bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. 2012 yilda qabul qilingan jami 4 ta qonun hujjatlarida, O'zbekistonda elektron hukumatni amaliyotga joriy etishni

jadallashtirish borasida asosiy chora-tadbirlar va aniq yo'nalishlar belgilab olindi. Avvalo, 2012 yil, 21-mart kuni imzolangan, PQ-1730, «Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora tadbirlari» haqidagi Prezident qarori orqali, o'z ichiga 21 ta aniq chora-tadbirlarni qamrab olgan, 2012-2014 yillarga mo'ljallangan maxsus dastur tasdiqlandi va uning ijrosi maxsus Muvofiqlashtiruvchi Kengashga yuklandi. Vazirlar Mahkamasining 2012 yil, 1-noyabrdagi, №313 qarori bilan, Elektron hukumatning asosiy interaktiv xizmatlari ro'yxati (reestri) yangilandi (87-band), va nihoyat, bu borada, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrdagi, №378 «Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori bilan, elektron hukumatni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish maqsadida, Yagona davlat interaktiv xizmatlari portali (Yagona portal) tashkil etish va uning texnik va texnologik asoslari bayon qilingan nizom qabul qilindi.

Yuqorida eslab o'tilgan barcha me'yoriy-huquqiy qonunchilik hujjatlari, O'zbekistonda interaktiv davlat xizmatlari hamda elektron hukumatni joriy qilish, uni rivojlantirish borasida bosqichma-bosqich, evolyutsion huquqiy poydevorni yaratishga xizmat qildi. 2013 yilda ham bu boradagi mantiqiy izchillik davom etib, aytish mumkinki, haqiqiy ma'noda O'zbek elektron hukumatining huquqiy poydevorini mustahkamlagan muhim qonun hujjatlarining qabul qilinishi bilan ahamiyatli bo'ldi. Xususan, bu borada, Vazirlar Mahkamasining 25-yanvar, 2013 yil, 18-sonli qarori bilan, davlat boshqaruvining samaradorligi va yuridik hamda jismoniy shaxslarga interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish sifatining oshirilishini ta'minlovchi «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish alohida ustuvor vazifa qilib belgilandi. Qolaversa, mazkur qarorda «Elektron hukumat» tushunchasiga, o'zbek tilida rasmiy tushuntirish – ta'rif berildi:

Elektron hukumat tushunchasiga O'zbekiston hukumatining tavsifi⁴:

Elektron hukumat tizimi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat xizmatlari hamda davlat organlarining faoliyati natijalari to'g'risida axborot olish (almashish) tezkorligi va qulayligi sifat jihatdan yangi darajasini ta'minlovchi davlat organlarining faoliyatini tashkil qilish shakli.

1.4.3-rasm E2Gga O'zbekiston hukumati tasnifi.


Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda, elektron hukumatni tashkil qilish borasida hukumat darajasida katta e'tibor ko'rsatilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida, hukumat darajasida qabul qilingan so'nggi muhim qarorlarni keltirishimiz mumkin. 2013 yil, 16-sentyabrdagi 250-sonli Hukumat Qarori bilan, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish maqsadida, maxsus markaz – «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish markazi» hamda, «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi» tashkil qilindi. Mazkur qaror bilan, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash, uning me'yoriy-huquqiy bazasi, uslubiy va texnologik ta'minoti va tizim uchun mas'ul tashkilotlarning moddiy texnik bazasini mustahkamlashga oid o'ta muhim ustuvor vazifalar aniq belgilab berildi.

Bundan tashqari, ushbu qaror bilan, «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish» hamda, «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi» larning tuzilmasi va faoliyati tartibini belgilovchi nizom qabul qilindi.

Prezidentimizning 2012 yil sentyabr oyida Janubiy Koreyaga amalga oshirgan tashriflari mobaynida, axborotlashtirish sohasida hamkorlik to'g'risida o'zaro anglashuv memorandumi imzolangan edi. Koreya Respublikasining elektron hukumat borasida BMT reytingida qatorasiga ikkinchi marotaba yetakchilik qilayotganligini maqolamizda ta'kidlagan edik. Koreyaning bu boradagi boy tajribasi, hamda mazkur davlat hamda Respublikamiz o'rtasida o'rnatilgan mustahkam hamkorlik aloqalari negizida, Prezidentimiz tomonidan Koreyaning

axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yetakchi mutaxassislaridan biri – janob Kim Nam Sok, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini shakllantirish jarayoniga ko'maklashish maqsadida, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari sifatida AKT bo'yicha maslahatchi etib tayinlangan edi.

Prezidentimiz I.A. Karimov, 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish, jumladan, biznes sohasi va fuqarolarga interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonini takomillashtirish muhimligini alohida ta'kidlagan edilar. Bu esa O'zbekistonda «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish uchun davlat rahbariyati darajasida yuksak e'tibor qaratilayotganligiga yorqin dalildir. Tasavvur yaqqolroq bo'lishi uchun, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini joriy etilishining so'nggi tendensiyalarini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash o'rinli bo'lar edi:



1.4.4-rasm. O'zbekistonda elektron hukumat tizimini joriy etilishining so'nggi tendensiyalarini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash o'rin

Bu borada, 2013 yilning o'tgan 10 oylik kattagina qismida salmoqli amaliy ishlar bajarilgani va muhim natijalarga erishilganini e'tirof etish o'rinlidir. Xususan, bu borada amalga oshirilgan eng katta amaliy ishlardan biri – 2013 yil 1-iyuldan boshlab, O'zbekiston yagona Davlat interaktiv xizmatlari portali (yagona portal) ishga tushdi. Bungacha esa, O'zbekiston elektron hukumat tizimining maxsus ko'rinishi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali – www.gov.uz bazasida taqdim etilayotgan edi:

II-BOB. O‘ZBEKISTONDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH.

2.1. O‘zbekiston Respublikasi hukumatida AKTni joriy etishi.

“O‘zbekistonni rivojlantirish uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari siyosatini shakllantirish va joriy etishda O‘zbekiston Respublikasi Xukumatiga ko‘maklashish” loyihasi (ICTP) – bu BMT bilan O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining birgalikdagi Rivojlantirish dasturi loyihasi. Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirish kengashi o'z vakili – O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi orqali Loyihaning Xukumat tomonidan ijrochi organi hisoblanadi. ICTP Loyihasi ikki o‘ziga xos va o‘zaro bog‘liq maqsadlarni oldiga qo‘ygan. Bu O‘zbekistonda Axborot-Kommunikatsiya Texnologiyalar (AKT) rivojlanishini targ‘ib etish, hamda Hukumatga taraqqiyotning maxsus maqsadlariga erishishda AKTdan foydalanish borasida ko‘mak ko‘rsatishdan iboratdir.

O‘z maqsadlariga erishish yo‘lida ICTP qator vazifalarni amalga oshiradi va ularni quyidagi besh yo‘nalishda taqsimlaydi:

1. Strategik konsultatsiyalar
2. Ilk loyihalarni tatbiq etish
3. Salohiyatni oshirish
4. Umumiy xabardorlikni oshirish
5. Davlat va xususiy hamkorlikni yanada kuchaytirish

Strategik konsultatsiyalar. Strategik konsultatsiyalar ICTP Loyihasining AKT taraqqiyoti masalalaridagi o‘zining qarashini bildiradi. Shu bilan birga, elektron hukumat, elektron ta’lim, elektron tijorat, umuman AKTdan foydalanishning muqobil yo‘llarini ishlab chiqish, axborot manbalarini yaratish, hamda boshqa muhim masalalarning huquqiy asosini yaratishda va ularni, amaliyotda qo‘llashda ko‘mak beradi.

ICTP o‘zining strategik konsultatsiyalarini mahalliy va xorijiy mutaxassislar

tomonidan muntazam ravishda olib boriluvchi tadqiqotlar va izlanishlar asosida yaratadi. Asosiy e'tibor O'zbekistonda AKT rivojlanishi, axborot texnologiyalari(AT)da mualliflik huquqi, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minot, autorsing yo'nalishlariga qaratiladi. Loyiha o'zining tavsiyalarini texnik ko'mak dasturlarning ehtiyoj xususiyatlarini ko'rib chiqqan holda taqdim etadi.

Tajribaviy tashabbuslarni tatbiq etish. Tajribaviy tashabbuslarni tatbiq etish – AKT imkoniyatlarini namoyish etish, hamda ularni kelajakda keng miqyosda tatbiq etish xaritasini ishlab chiqish uchun eng ishonchli usuldir. Yangi loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishda ICTP hamkorlarning faol ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zining elektron hukumat bo'yicha loyihasi, .uz domen hududini yaxshilash, elektron raqamli imzolarni ro'yxatdan o'tkazuvchi markazlar yaratish va rivojlantirish, teletibbiyot bo'yicha loyihalar orqali ICTP davlat mahkamalari, ta'lim muassasalari, jamoat birlashmalari va keng jamoatchilikka rivojlanish maqsadlariga erishishda AKT imkoniyatlaridan foydalanishda ko'mak beradi.

Salohiyatni oshirish. O'zbekistonda AKTdan taraqqiyot yo'lida foydalanish ma'lum ma'noda yangilik hisoblanadi. Shu sababli bu sohada salohiyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'mak berishda ICTP salohiyat oshirishni umuman olganda, shu jumladan inson resurslari, tashkiliy va institutsional jihatlarni rivojlantirishga urg'u beradi.

ICTP salohiyatni qator AKT bo'yicha trening, seminar, davra suhbatlari va konsultatsiyalar, ta'lim materiallarini ishlab chiqish, AKT taraqqiyoti jarayoni hamda huquqiy asoslari bo'yicha yo'riqnomalar yaratish orqali oshiradi. Bu borada misol qilib, yaqinda amalga oshirilgan ishlar sirasiga axborot texnologiyalari sohasida mualliflik huquqini himoyalash bo'yicha ilk anjuman, Toshkent Axborot Texnologiyalari Universitetida ta'lim sifatini oshirish, BMTDning boshqa qo'shma loyihalarida AT treninglar o'tkazish va ushbu dasturlarda AKT komponentini kuchaytirish bo'yicha konsultatsiyalar taqdimotini keltirish mumkin.


Maxsus AT Ko'ngillilar Xizmati orqali ICTP Loyihasi salohiyatning oshishiga alohida hissa qo'shadi. Ushbu Xizmat AKT sohasiga qiziquvchi yoshlarini o'z ichiga olgan bo'lib, ular o'z faoliyati davomida davlat va notijoriy tashkilotlar, ta'lim muassasalariga AKT sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun maxsus treninglar va bepul texnik sozlov xizmatlarini ko'rsatadi.

Umimiy xabardorlikni oshirish. Axborot almashinuvining mavjud qulay yo'llaridan foydalanish va ochiq dialogni targ'ib etish - manfaaddor tomonlar qabul qiluvchi qarorlarni hurmat qilish demakdir. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda AKT imkoniyatlarining beqiyos ekanidan xabardor bo'lish AKT rivojlanishining ustuvorligini oshiradi va AKTdan foydalanish sohalarining kengayishini ta'minlaydi. ICTP aholining AKT bo'yicha umumiy bilimini mahalliy va milliy darajadagi muqobil axborotni yaratish va keng miqyosda tarqatish orqali oshiradi. ICTP Internetdagi milliy manbalardan foydalanishni targ'ib qiladi va milliy hamkorlarga ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishdagi ma'lumot tayyorlashda yordam beradi. Bundan tashqari, ICTP aholini AKT sohasiga maxsus teletanlovlar, "Taraqqiyot sari" deb nomlangan AKTga bag'ishlangan ko'rsatuv orqali qiziqtiradi. Loyiha AKT sohasidagi yangiliklar va hodisalar o'z vaqtida va mukammal yaratilishi uchun mahalliy ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

2.2. Elektron hujjat almashinuvi tizimi

Elektron hujjat almashish tizimlari – elektron hujjatlarni axborot-kommunikasiya tizimi orqali jo'natish va qabul qilish jarayonlari yig'indisi.

Elektron hujjat aylanishidan bitimlar (shu jumladan shartnomalar) tuzish, hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin.



2.2.1-rasm.Elektron hujjat almashinuvi tizimi.

Axborot kommunikasiya vositalari va texnologiyalari yordamida inson uchun qulay shaklda saqlanadigan, uzatiladigan va taqdim etiladigan va uni tanib olishga imkon beradigan rekvizitlarga ega elektron vositalardagi axborot - bu elektron hujjatdir.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot kommunikasiya tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda hosil qilinadi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjatning rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- Elektron raqamli imzo;
- Jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;

- Jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- Hujjat yaratilgan sana.

Taraqqiyotga erishish uchun tashkilotlar o'rtasida biryo'qlama va ko'p tomonli hamkorlik bo'lishi lozim. Hamkorlik har bir tashkilotning salohiyatini kengaytiradi, manbalardan foydalanish imkonini beradi va qo'shma faoliyat uchun sharoit yaratadi.

ICTP AKT masalalari bo'yicha ochiq muzokara olib borish hamda hukumat, xususiy sho'ba va xalqaro jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi va buning uchun zamin yaratadi. AKT bo'yicha Milliy Sammit, doimiy uchrashuvlar, seminar va konferensiyalar o'zaro muomalani yengillashtiradi va hamkorlikni chuqurlashtiradi. ICTP Loyihasi davlat va xususiy hamkorlikni O'zbekiston AT kompaniyalari va tashkilotlari Assotsiatsiyasi doirasida yaxshilab borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu muassasa ICTP Loyihasi tomonidan ilgari surilgan va O'zbekiston Hukumati tomonidan maqullangan fikr asosida tashkil etilgan edi.

Hamkorlik. ICTP Loyihasi turli hukumat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, ilmiy institutlar hamda xususiy kompaniyalar bilan AKT sohasini yana rivojlantirish uchun hamkorlik qiladi. ICTP bu borada yangi takliflarni quvvatlaydi va AKT bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi barcha tashkilotlarni hamkorlikka chorlaydi.

Kutilayotgan natija hozirgi kunda loyiha faoliyati orqali quyidagi natijalarga erishildi:

- O'zbekiston Axborot texnologiyalari korxonalari va tashkilotlari uyushmasi tashkil etildi (www.ict.uz);
 - O'zbekiston Respublikasida birinchi marta Elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatdan o'tkazish markazini tashkil etishda yordam berildi;
 - UzInfoCom markaziga .UZ domen nomini rivojlantirishda ko'maklashildi.
- Natijada .UZ domeni ma'muriyatining yaxshilangan versiyasi ishga tushirildi

(<http://www.cctld.uz/>);

• Erkin va ochiq dasturiy ta'minot (EODT)ni yanada rivojlantirishda ko'maklashildi. EODTning barcha imkoniyatlari o'rganildi, O'zbekistonda EODTni rivojlantirish uchun kerakli tavsiyalar tayyorlandi va barcha ishlar amalga oshirildi.

Xususan:

- “O'zbekistonni rivojlantirish uchun erkin va ochiq dasturiy ta'minot (EODT)dan foydalanish” mavzuidagi tadqiqot e'lon qilindi
- Osiyo va Tinch okeani mamlakatlarining EODT bobidagi tajribasini o'zlashtirish va shu tariqa bu tajribadan keyinchalik O'zbekistonda foydalanish maqsadida EODT borasida malaka oshirish uchun Tayland va Malayziyaga o'quv safarlari tashkil etildi
- Erkin va ochiq dasturiy ta'minot (EODT) bo'yicha resurs markazining <http://www.opensource.uz> manzilidagi veb-sayti yaratildi hamda ishga tushirildi;
- O'zbekiston televideniyesida “Kod buzuvchilar” maxsus teledasturi tayyorlandi va ko'rsatildi;
- “Erkin va ochiq dasturiy ta'minot” kompakt-diski (FOSS CD) chiqarildi. EODT kolleksiyasini o'z ichiga olgan bu disk Microsoft Windows muhitida ishlaydi hamda uy va ofis uchun dasturiy yechimlar kompleksini ta'minlaydi;
- AKT volonterlar uchun bir necha EODT trening kurslari o'tkazildi (PHP, CMS);
- EODT asosida veb-saytlar yaratildi (www.ict.uz, www.timi.ziyonet.uz, www.solympuz.freenet.uz, <http://ombudsman.gov.uz/> va boshqalar);
- Xalqaro hamkorlik ishlari olib borildi (Tayland, Malayziya);
- O'zbekistondagi “Linuksoidlar” jamoat tashkiloti bilan sheriklik munosabatlari o'rnatildi hamda ICTExpo 2006 ko'rgazmasi vaqtida Linuks parkni tayyorlashda yordamlashildi
- EODT operatsion tizimining o'zbekistonlik ishlab chiquvchilari bilan sheriklik munosabatlari o'rnatildi (Eastlinux.uz loyihasi);

- 2005 yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qanday rivojlanganligi muvaffaqiyatli monitoring qilindi va 2005 yilda O'zbekistonda AKT taraqqiyotining yillik sharhi e'lon qilindi;
 - 2006-2008 yillarda O'zbekistonda AKT Rivojlanishi Sharhi;
- «BestSoft 2007-2009» dasturiy maxsulotlar birinchi Milliy kurgazmasi tashkil etishda kumaklashildi;
- “Markaziy Osiyoda telekommunikatsiya xizmatlari darajasini oshirish uchun AKT va keng hajmli aloqani rivojlantirish” mavzuidagi xalqaro seminar tashkillashtirildi;
- Axborot resurslarini boshqarish va rivojlantirish sohasidagi “U-CONNECT 2007” xalqaro seminari o'tkazililishiga kumaklashildi;
- InfoCom 2006/2007/2008 haftaliklari doirasida AKT 2006-2008 Milliy Sammitlari, ICTExpo 2006-2009 axborot texnologiyalari milliy ko'rgazmalari (www.ict.uz/ictexhibition) doirasida BMTRD, Linuks Park stendlari, EODT davra suhbatlari, shuningdek yoshlar uchun Internet-Marafon tashkil etildi;
- Sirdaryo, Samarqand, Xorazm, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpoqiston Respublikasi, Qarshi, Termiz, Nukus, Urganch, Toshkent shaharlari hokimiyatlarining vakillari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida Bilan xamkorlikda “Xukumatda va jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni qo'llash” trening-kurslari tashkillashtirildi;
- AKT sohasidagi intellektual mulk va mualliflik huquqini himoyalash bo'yicha seminar muvaffaqiyatli o'tkazildi;
- Toshkent Axborot texnologiyalari instituti bilan birgalikda ilk marotaba o'zbek tilida “Axborot texnologiyalari” darsligi tayyorlandi va chiqarildi;
- Quyidagi samarali o'quv safarlari tashkil etildi:
 - O'zbekistonda foydalanish uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida EODT sohasida to'plangan tajribani o'rganish
 - Rossiya, MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi autsoring, dasturiy

ta'minot (DT) ishlab chiqish va umuman axborot texnologiyalari sohasidagi xalqaro hamkorlik tajribasini o'rganish

- Osiyo va Tinch okeani mamlakatlaridagi EODT tajribasini o'zlashtirish va shu tariqa ular tajribasidan keyinchalik O'zbekistonda foydalanish maqsadida EODT bo'yicha malaka oshirish uchun Tayland va Malayziyaga o'quv safarlari
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida “Axborot jamiyatini shakllantirishda elektron hukumat” mavzusida qo'shma trening kursi tashkil etildi;
- Cisco mintaqaviy akademiyasi bilan birgalikda «Yangi texnologiyalar: xavfsizlik va unifikatsiyalangan kommunikatsiyalar» mavzusida qo'shma trening kursi tashkil qilindi;
- Birinchi Ayollar internet-festivalini, Yoshlar Internet-marafonini, dasturlash bo'yicha ACM-ICPC 2006-2008 xalqaro komanda chempionatini tashkil etishda ko'maklashildi;
- Milliy axborot resurslarini ishlab chiqishda yordam berildi (www.mehnat.uz, www.school.uz, <http://www.craftsman.uz> va boshqalar);
- «O'zbekiston» telekanalida AKT sohasidagi «Taraqqiyot sari» teledasturi 40 marotaba ekranga chiqdi;
- ICTP loyihasi volonterlari yordamida quyidagilarning internet-sahifalari ishlab chiqildi:
 - Axborot texnologiyalari haftaligi (www.ict.uz);
 - “O'zbekiston maxsus olimpiadasi” sport jamoat birlashmasi (<http://solympuz.freenet.uz>);
 - Ombudsman (<http://ombudsman.gov.uz/>).
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi uchun “Investitsiya tizimlari monitoringi” loyihasining dizayni;
- “O'zbekistonda Dasturiy ta'minot autsorsingi imkoniyatlarini o'rganish” mavzuida tadqiqot nashrdan chiqarildi;
- Yosh dasturchilarni tayyorlash markazi uchun tizim tahlili, loyihani boshqarish,

DT yaratish hayotiy siklining usullari kabi va boshqa trening kurslarni tashkil etildi.

- O'zbekistonda AKT sohasida texnoparklarni rivojlantirish milliy strategiyasini ishlab chiqish uchun eng yaxshi harakatlar va tavsiyalarni sharhi;
- Erkin ochiq dasturiy ta'minot bo'yicha trening materiallarini tayyorladi;
- O'zbekistonda mualliflik huquqi bilan bog'liq ishlarning hozirgi ahvolini o'rganish hamda "Mualliflik huquqlariga rioya etish bo'yicha tavsiyalar" qo'llanmasini ishlab chiqdi.

2.3. Yagona oyna markazlari afzalliklari

Davlat hokimiyati organlari bilan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni davr talabi asosida takomillashtirish taraqqiyotga xizmat qiluvchi omillardan biri. Namanganda bo'lib o'tgan seminar ana shu mavzuga bag'ishlandi. Unda O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining Namangan viloyati hududiy boshqarmasi, BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi, yirik korxona va tashkilotlar rahbarlari, fuqarolar yig'inlari raislari ishtirok etdi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustda qabul qilingan "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda BMT Taraqqiyot dasturining 2010-2015 yillar uchun mamlakatga oid dasturni amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasida ko'zda tutilgan "Yagona oyna markazi"ni tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

– "Yagona oyna markazi" davlat xizmatlarini taqdim etish borasidagi yangicha yondashuv bo'lib, unda davlat va jamoat xizmatlari bir joyga jamlanadi, – deydi O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Kamoliddin Rahimov. – Markazda fuqarolar ortiqcha vaqt yo'qotmasdan, turli ovoragarchiliklarga duch kelmasdan ma'lumotlar, litsenziyalar, akkreditatsiyalar olish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. "Yagona oyna markazi"da fuqarolarning so'rovnomalarini qabul qilish, ular asosida hokimiyat organlari bilan hamkorlikda hujjatlar tayyorlab, fuqarolarga taqdim etish yo'lga qo'yiladi. Davlat bojlari va davlat tomonidan ko'rsatiladigan boshqa pullik xizmatlar to'lovini amalga oshirish uchun bank bo'limi joylashtiriladi. Gaz, elektr ta'minoti korxonalari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish bo'limlarining vakillari faoliyati uchun barcha shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolar markazning o'zida kommunal to'lovlarni amalga

oshirish, ishga joylashish, tadbirkorlik faoliyati, soliq to'lovlari va boshqa masalalarga doir to'liq axborot oladilar. Seminarda markaz mutaxassislarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash, amaliy muloqot va muomala madaniyati, fuqarolarga, shuningdek, nogironlarga xizmat ko'rsatish amaliyoti bo'yicha trening va kurslar tashkil etish yuzasidan ham taklif-mulohazalar bildirildi.

“Yagona oyna” markazini yanada rivojlantirish

1. Yagona oyna markazlarini respublikamizning har bir viloyatlarida tashkil etish ko'zda tutilgan
2. Yagona oyna markazlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha Nizom loyihasi ishlab chiqilgan
3. Yagona oyna markazining tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilgan
4. Yagona oyna markazlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari belgilandi
5. Respublikamiz xududlari bo'yicha 2015 yilga qadar Yagona oyna markazlari sonini oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi

“Yagona oyna” markazi veb-sayti-www.biroyna.uz



2.3.1-rasm. Yagona oyna web sayti

III BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

3.1. Elektromagnit nurlanishlar

Elektromagnit nurlanishlar atrof muhitning barcha nuqtalarida mavjuddir. Inson ham kichik intensivlikdagi elektromagnit nurlanish manbai hisoblanadi. Elektromagnit nurlanishlar manbalari 2 turga bo`linadi: tabiiy va texnogen.

Tabiiy manbalarga atmosfera elektr zaryadlari, quyosh va galaktikadagi radio nurlanishlar (koinot bo`ylab bir tekis tarqalgan reliktiv nurlanishlar), yerning elektrik va magnit maydoni kiradi.


Texnogen manbalarga:

ishlab chiqarishda:

- materiallarga induksion va dielektrik ishlov berish qurilmalari;
- gazlarni ionlash manbalari;
- sintetik materiallarni presslash va payvandlash qurilmalari;
- elektr uzatish liniyalari, ayniqsa yuqori kuchlanishli ;
- tarqatish qurilmalari;
- o`lchash qurilmalari va b.

maishiy xizmatda:

- radiostantsiyalar;
- TV stantsiyalar;
- axborot uzatish bloklari;
- antenna tizimlari va b.



1-sxema. Chastotalar shkalasi

Elektromagnit nurlanishlarning inson organizmiga ta'siri quyidagi omillarga bog'liq holda belgilanadi:

- to'liqin chastotasi;
- elektrik va magnet maydonlari kuchlanganlik darajasi;
- energiya oqimi zichligi;
- tananing nurlangan yuzasi o'lchami.
- inson organizmining shaxsiy xususiyatlari;
- muhitning boshqa omillari bilan birgalikdagi ta'siri.

Elektromagnit nurlanishlar inson organizmiga 2 xil ta'sir etadi:

1. Issiqlik ta'siri- elektromagnit maydonda molekula va atomlar qutblanadi, qutblangan molekulalar (suv) tomon yo'naladi, elektrolitlarda ion toklari hosil bo'lib, bu tana to'qimalarini qizishiga olib keladi. Past issiqlik rostdashuviga ega a'zolar ko'z, miya, bosh miya to'qimalari, jigar, buyrakga katta ta'sir etadi.

2. Xususiy ta'siri - elektromagnit nurlanishlar oqsil molekulalariga ta'sir etib, ularning bioximik faolligini susaytiradi, natijada qon to'qimalari, endokrin tizimni o'zgarishiga olib keladi, to'qimalarning ta'minoti buziladi, tirnoq va

sochlarni sinishi, tushishi kuzatiladi, yurak-qon tizim faoliyatiga salbiy ta'sir etadi va immunitetni kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Elektromagnit nurlanishlarni me'yorlash. EM nurlanishlarni me'yorlashda chastota diapozoni va elektromagnit maydonni kuchlanganlik darajasi hamda energetik yuklanganligi hisobga olinadi.

Nurlanish mavjud ish joyidagi

ruksat etilgan vaqt	Intensivlik, kVt/sm²
8 soat	0,01
2 soat	0,10
15-20 min. (himoya ko'zoynagidan qat'iy foydalanish sharti bilan)	1,00

Ishchi doimiy bo'ladigan ish joylarida elektr maydon kuchlanishi ultra qisqa to'lqinlar uchun 5V/m, o'rta va uzun to'lqinlar uchun -20V/m dan oshmasligi zarur. Elektr maydon ta'siri magnit maydon kuchlanishi 160-200 A/metr dan boshlab sezila boshlanadi. Sanoat chastotasidagi toklarda magnit maydon kuchlanishi 25A/m dan oshmaydi.

Nurlanish intensivligini o'lchash uchun IEMP (chastota 100 kGts dan 1,5 MGts gacha bo'lgan holatlarda) IEMP-2 (chastota 50 Gts dan 100 kGts bo'lganda) ishlatiladi.

Elektromagnit maydon nurlanishi ta'siridan himoyalanih.

EM nurlanishlardan himoyalanihga qaratilgan tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Manba quvvatini kamaytirish - nurlanish parametrlarini manbani o`zida nurlanishni yutuvchi materiallar (grafit, rezina va b.)dan foydalanib kamaytirish;

2. Nurlanish manbasini ekranlashtirish.

3. Nurlanish zonasini ajratish.

4. Qurilmalardan foydalanishning ratsional rejimini o`rnatish.

5. Signal vositalaridan foydalanish.

6. Masofa bilan himoyalash (ayniqsa o`ta yuqori chastotalarda).

7. Vaqt bilan himoyalash.

8. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.

3.2. Ionlashuvchi nurlanishlar manbalari, turlari va ularning tavsifi

XIX asr oxirlariga kelib, asosan rentgen nurlari kashf etilgach, insoniyat ionli nurlanishlarning salbiy ta'siriga to'qnash keldi. 1985-yil Rentgenning yordamchisi rentgen nurlari ta'sirida qo'lini kuydirdi. Keyinchalik A.Bekkerel radiy solingan namunani yon kistasida solib nurlandi. Mariya Kyuri tashqi va ichki nurlanish tufayli halok bo'ldi (uning murdasi hozirgacha radioaktiv xavfli hisoblanadi). XX asr oxirlariga kelib ionli nurlanishlar juda kuchli salbiy ta'sirga ega ekanligi aniqlandi va radiatsion himoya bo'yicha Xalqaro Komissiya tuzildi va radioaktiv moddalar bilan ishlash qoidalari ishlab chiqildi, radioaktivlikdan himoyalaniish tadbirlari tuzildi. 1955-yil BMT Bosh Assambleyasida atom radiatsiyasining manbasiga bog'liq bo'lmagan holda inson va atrof-muhitga ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanuvchi ilmiy komitetga asos solindi.

Ionli nurlanishlarni atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri qarama-qarshi zaryadlarni hosil bo'lishiga olib keladi.

Ionli nurlanishlar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

Elektromagnit qism:

- rentgan nurlari
- nurlanishlar

Korpuskulyar qism:

- nurlar-I (geliy yadrosi);
- nurlar- I (elektronlar).
- neytronlar

Ionli nurlar 2 xil: o'tuvchanlik (biror material yoki modda orqali o'tish xususiyati) va ionlash xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Ionli nurlanishlar o'lchov birligi - Rentgen (R). Inson uchun o'limga olib keluvchi miqdori - 500-600 R. To'liq ish kunida nurlanishning ruxsat etilgan miqdori - 0,5R. Ionli nurlanishlar ichida eng xavflisi (gamma) nurlanish hisoblanadi.

Nurlanish faolligi o'lchov birliklari:

1 Bekkerel (Bk) - bir sekundda yadroning 1 marta tushishi;

Kyuri (ki) - muhitni radionuklidlar bilan ifloslanganligini baholash uchun ishlatiladi. $1 \text{ Ki} = 3,7 \cdot 10^{10} \text{ BkA}$.

Nurlanishning ekspozitsion dozasi - nurlanishning ionlash qobiliyati bilan xarakterlanadi.

Ekvivalent doza - ionli nurlarning tirik to'qimalarga ta'siri bilan xarakterlanadi. O'lchov birligi - Zivert (Zv). $1 \text{ Zv} = 100 \text{ Ber}$.

Ber- Rentgenning biologik ekvivalenti.

Ionli nurlanishlarning biologik ta'siri.

Tashqi nurlanish - organizmdan tashqarida yuzaga keladigan nurlanish manbalari ta'siri.

Ichki nurlanish - organizm ichidagi nurlanish manbalari ta'siri. Ichki nurlanishda korpuskulyar nurlanish xavfli hisoblanadi. Tashqi nurlanish uchun teri qatlami tabiiy himoya qobig'i hisoblanadi. Inson organizmida suvning ionlashuv jarayoni biologik ta'sirga olib keladi. Bunda ON ionlari hosil bo'ladi va u gidroksil' guruhga kirib, oksidlanish jarayonini tezlatadi, bioximik reaksiyalarni buzilishiga va oqibatda:

- qon tomirlari funksiyasini buzilishiga;

- qonning quyilish (ivish) me`yorini buzilishiga;
- qon tomirlarini zaiflashishi va mo`rtlashuviga;
- oshqozon-ichak faoliyatini yomonlashuviga;
- immunitetning kamayishiga;
- organizmning umumiy ishdan chiqishi (sillasi qurib, ozib-to`zib, holsiz bo`lish holatlarini yuzaga kelishi)ga olib keladi.

Nurlanishning 2 xil ta`siri kuzatiladi: nurlanish ta`sirining boshlanish davri va kuchli ta`sir.

Nurlanish ta`sirining boshlanish davri -nurlanishning biologik ta`siri bo`lib, nurlanish ta`sirida inson sog`ligida salbiy o`zgarishlar sodir bo`la boshlaydi, ta`sirning kuchayishi esa dozaga bog`liq holda o`zgaradi.

1. O`tkir zararlanish- qisqa vaqt davomida katta dozadagi nurlanish ta`sirida o`tkir nur kasalligini keltirib chiqaradi.

1-davri-birlamchi reaksiya: haroratning ko`tarilishi, pulsning tezlashishi, qayd qilish, bosh aylanishi, lanjlik, lohaslik holatlari kuzatiladi.

2 - davri - yashirin davri.

3 - davri - kasallikni kuchayishi (qayd qilish, qon ketishi va b.)

4 - davri - yo sog`ayadi, yoki o`lim bilan tugaydi.

0,8 - 1.2 Zv; 80 - 120R - nur kasalligining dastlabki belgilari yuzaga keladi, inson o`z kuchi bilan tuzaladi.

2,7- 3 Zv; 270 - 300 R -nur kasalligining kuchli belgilari hosil bo`ladi ( 50% o`lim bilan tugaydi).

5,5- 7 Zv - davolab bo`lmaydi, barcha holatlar o`lim bilan tugaydi.

2. Xronik nur kasalligi - vrach-rentgenologlarning kasbiy kasalligi

3.3. Ultrabinafsha va infraqizil nurlanishlar

Ultrabinafsha nurlanish (UB) 380 dan 1 nm gacha to'liq oralig'ida yuzaga keladi. Uning manbalariga quyosh radiatsiyasi, plazmali payvandlash ishlari, cho'g'lanma va gazrazryadli chiroqlar, lazer va elektrgaz payvand qurilmalari kiradi.

Ultrabinafsha nurlar inson organizmi uchun ma'lum darajada zarur hisoblanadi. Lekin ushbu nurlarning ruxsat etilgan miqdor darajasidan oshib ketishi turli xil kasalliklarga olib keladi. UB nurlarning salbiy ta'sirini boshlanishi teri qizarib, qichishishi, bosh og'rig'i, tana haroratining ko'tarilishi kabi belgilar bilan kuzatiladi.

Ultrabinafsha nurlardan tibbiyotda va ayrim texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishda ham qo'llaniladi. To'liq uzunligi 320-380 nm oralig'idagi UB nurlardan teri kasalliklarini profilaktika qilishda, 160-254 nm dagi nurlardan tuproq va suvni zararsizlantirishda, ish xonalarini zararli bakteriyalar va mikroblardan tozalashda foydalaniladi.

Ultrabinafsha nurlarning zararli ta'siridan himoyalashda himoya ekranlari, pardalar, kabinalar, masofadan boshqarish vositalari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniladi.

Infraqizil nurlanishlar (issiqlik radiatsiyasi)ga 1 mm dan 780 nm to'liq oralig'ida yuzaga keladi. Uning manbalari - quyosh, eritilgan metall, elektr yoyi, olov, uskuna va jihozlarning qizigan yuzalari, cho'g'lanma chiroqlar va b.

Infraqizil nurlar teri to'qimalari orqali o'tib, tananing issiqlik rostlashuviga salbiy ta'sir etadi. Uzoq vaqt IQ nurlar ta'sirida bo'lish terining qizarishiga, kuyishiga, ko'z to'r pardasining shikastlanishiga, tana haroratining ko'tarilishiga olib keladi. Yozning issiq oylarida oftob urishi hollari ham uchraydi.

UB va IQ nurlardan himoyalovchi shaxsiy himoya vositalariga maxsus kiyimlar, qo'lqop, ko'zoynak, poyabzal, himoyalovchi kaskalar kiradi.

Ionli nurlanishlarni aniqlash usullari

Radioaktiv nurlanishlarni aniqlash va o'lchash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

Ionizatsion usul. Gazli muhitda radioaktiv nurlar ta'sirida nurlanishgacha bo'lgan elektron neytral molekulalar va atomlarning ionlashuvi yuzaga keladi. Elektr maydoni ta'sirida ionlashgan gazli muhitda zaryadlangan zarrachalarning yo'naltirilgan harakati vujudga keladi. Ionlashgan tok miqdorini o'lchab, radioaktiv nurlanish intensivligi haqida xulosa qilinadi.

Fotografik usul. Radioaktiv nurlanish ta'sirida bromli kumush molekulalarini

parchalanishiga asoslangan.

O'lchash oralig'i 0-10Rentgen.

Afzalligi - hujjatlashganligi.

Kamchiligi - jarayonning murakkabligi.

Kimyoviy usul. Ayrim moddalarning molekulalarini radioaktiv nurlar ta'sirida parchalanib, yangi kimyoviy birikmalar hosil qilish xususiyatiga asoslangan.

Afzalligi:

- tirik to'qimalarning yutuvchanlik xususiyatiga yaqin muhit hosil qilish imkoniyati;

- radiatsiyaning yuqori darajasida ham o'lchash mumkin.

Kamchiligi:

- kichik sezgirlik qobiliyati;
- katta o'lchash xatoligi.

Sintillyatsion usul. Ayrim moddalarni, masalan oltingugurtli rux kumush bilan, iodli natriy talliy bilan radioaktiv nurlar ta'sirida yorug'lik ko'rinishidagi fotonlar chiqaradi. Natijada yuzaga keladigan yorug'lik portlashi (stsintillyatsiya) qayd qilinadi.

Afzalligi:

- yuqori aniqlik;
- qayd etish samaradorligi;
- o'lchash oralig'ining kattaligi

Kamchiligi:

- vaqtga bog'liq holda xususiyatini o'zgarishi.

Kristallarni o'tkazuvchanligini o'zgarishiga asoslangan usul. Radioaktiv nurlar ta'sirida ayrim dielektriklar yarim o'tkazgich, ayrimlari esa o'tkazgichga aylanadi.

ZnS, S, olmos, Ge

Afzalligi:

- yuqori kattalikda tok olish mumkin;

- qayd qilishning samaraliligi;
- o`lchov oralig'ini kattaligi.

Kamchiligi:

- katta inertsiyali;
- vaqt o`tishi bilan sezgirligi o`zgaradi;
- o`lchash natijalarini ionlovchi zarrachalar energiyasiga bog`liqligi.

Nurlanishlarni o`lchash asboblari

Radiatsion razvedka va dozimetrik nazorat asboblarning vazifalari:

- zamonaviy xabar berish maqsadida radioaktiv zararlaniшни aniqlash;
- zararlangan hududda odamlar bo`lishining ruxsat etilgan vaqtini, zararlangan
- hudud chegarasini va undan aylanib o`tish yo`llarini aniqlash maqsadida radioaktivlik darajasini aniqlash;

Turli xil yuzalarni dezaktivatsiya qilish yoki sanitar ishlov berish maqsadida:

- zararlanganlik darajasini o`lchash;
- oziq-ovqat mahsulotlari, suv va qishloq xo`jalik ekinlari hosilini iste`molga yaroqliligini aniqlash maqsadida radioaktiv zararlanganlik darajasini aniqlash;
- odamlarning mehnatga qobiliyatini aniqlash, faoliyat rejimini tuzish maqsadida.

Nurlanish dozasini o`lchash.

Nurlanishni o`lchash asboblari quyidagi 3 turga bo`linadi :

- indikator signalizatorlar;
- doza quvvatini o`lchagichlar;

– shaxsiy nurlanish dozasini o`lchash asboblari.

1. Radioaktivlik indikator signalizatorlari -radioaktiv zararlanishni doimiy kuzatib borish va radioaktiv zararlanish to`g`risida xabar berish maqsadida ishlatiladi. Indikator sifatida IMD-21S asbobidan foydalaniladi. Ushbu asbob yorug`lik va tovush signalizatoriga ega hamda radioaktiv zararlanish dozasi quvvatining soniy miqdorini (1,5,10, 50, 100 R/s) ko`rsatadi.

2. Doza quvvatini o`lchash asboblari:

DP-2, DP-35 rentgenmetrlari - asosiy radioaktiv razvedka asbobi hisoblanib, joyning gamma-radiatsiya darajasini o`lchash uchun ishlatiladi

DP-5B, DP-5V, IMD-5 radiometr-rentgenmetrlari - keng diapazonli kombinatsiyalashgan asbob hisoblanib, joyning gamma-radiatsiya darajasini hamda turli xil predmet (ob`ekt)lar yuzalarining radioaktiv zararlanganlik darajasini aniqlaydi. DP-5V asbobi o`rniga hozirgi kunda ko`proq IMD-5 asbobidan foydalaniladi. Ushbu asbobning o`lchash oralig`i (diapazoni) 0,05mRad/soat - 200 Rad/soat.

DP-12 radiometri - turli xil predmet(ob`ekt)lar yuzalarining radioaktiv zararlanganlik darajasini o`lchashda foydalaniladi.

DP-100, IMD-12 hisoblash qurilmalari - suv, oziq-ovqat mahsulotlari, don va boshqa qishloq xo`jalik ekinlari hosillarining radioaktivlik darajasini aniq o`lchash uchun qo`llaniladi.

Gamma-nurlanish manbalarini havodan razvedka qilish maqsadida, 95% aniqlikda ishlovchi "Zefir-M" tizimidan foydalaniladi.

3. Shaxsiy nurlanish dozasini o`lchash asboblari.

Odamlar guruhi yoki alohida shaxsni zararlangan hududda bo'lishi natijasida olgan nurlanish dozasini aniqlash uchun DP-22, ID-1, ID-11, DP-70, DP-70M asboblari ishlatiladi.

DP-22V shaxsiy dozimetr komplekti. Nurlanish dozasini to'ridan-to'g'ri ko'rsatuvchi DKP-50A dozimetri va ZD-5 zaryadlash qurilmasi bilan jihozlangan. (DP-22V komplektining tarkibiga 50 ta dozimetr kiradi). Nurlanish quvvati 0,5-200R/soat bo'lganda o'lchash diapazoni 2-50R, o'z-o'zini zaryadlash - 4R/kun.

ID-1, ID-11 shaxsiy dozimetr komplekti. ID-1 gamma- va neytron nurlarining yutilgan dozasini o'lchash uchun ishlatiladi. 10 ta shaxsiy dozimetr va ZD-6 zaryadlash qurilmasidan iborat. O'lchash oralig'i 10-500 rad. ID-11 radiatsiyadan zararlenganda birlamchi diagnostika qilish maqsadida insonlarning nurlanish dozasini o'lchashda foydalaniladi. Uning komplektiga 500 ta shaxsiy dozimetr va IU markali o'lchash qurilmalari kiradi. O'lchash oralig'i 10-1500 rad.

Hozirgi vaqtda ID-1 komplektini o'rniga quyidagi dozimetrlardan keng foydalanilmoqda:

- "Ejik-1"- harbiy dozimetr, gamma nurlanishlar va tezkor elektronlarni qayd qiladi, o'lchash oralig'i 60-600 Rad.;

- "Ejik-N" -yagona gamma-neytron dozimetri, o'lchash oralig'i 10-1500 Rad.

ID-11 komplekti o'rniga yangi "JNETs" qurilmasidan ham foydalaniladi.

DP-70, DP-70M kimyoviy gamma-neytron dozimetri. Insonlarni nurlanish ta'sirida "nur kasalligi" bilan kasallanish darajasini tibbiy diagnostika qilish maqsadida nurlanish dozasini o'lchash uchun ishlatiladi. DKP-50Aga qo'shimcha sifatida beriladi. O'lchash oralig'i -50-80 R. DP-70 gamma nurlanish dozasini, DP-70M radiatsiya ta'siridagi umumiy dozani aniqlash uchun ishlatiladi.

XULOSA.

Axborot kommunikatsiya vositalari va texnologiyalari yordamida inson uchun qulay shaklda saqlanadigan, uzatiladigan va taqdim etiladigan va uni tanib olishga imkon beradigan rekvizitlarga ega elektron vositalar elektron xujjat hisoblanib bu hujjatlarni aylanishini O'zbekiston Respublikasida keng miqyosida ta'minlanishi hozirgi kundagi dolzarb mahala hisoblanib kelmoqda bu borada esa Respublikamizda ko'plab qaror va qonunlar ishlab chiqilmoqda va kundalik hayotimizda jamiyatimizning real sektorini va ishtimoiy tizimida keng qo'llanilmoqda. Bituruv malakaviy ishimda korxonalarda mehnat unumdorligini AKTning ahamiyati uning jamiyatda tutgan o'rni va uning istiqbollari haqida ma'lumotlar keltirib o'tdim. Hozirgi kunda barcha sohalarda AKTni qo'llash keng samara bermoqda jumladan ta'limda, iqtisod, soliqda va davlat boshqaruv tizimlarida va h.zo larni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ushbu bituruv malakaviy ishida quyidagilar ustuvor vazifa qilib olinib quyidagilar ko'rib chiqildi.

- Korxonalarda aktning qo'llashning afzalliklari.
- Bozor iqtisodiyotida AKTning ahamiyati.
- Interaktiv davlat xizmatlar.
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvida «Elektron hukumat».
- O'zbekiston Respublikasi hukumatida AKTni joriy etishi.
- Elektron hujjat almashinuvi tizimi.
- Yagona oyna markazlari afzalliklari.
- Hayot faoliyati xavfsiligi

Yurtimizda AKTning rolini oshirish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda shu asosda men ham malakaviy ishimda AKT ahamiyati va yangiliklariga bag'ishlangan veb sayt ishlab chiqdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “O’zbekiston XXI – asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent – 1997
2. И.А.Каримов. “Жаҳон молиявий иқтисодий инқирози”. Т.- 2009- й.
3. И.А.Каримов. “Юксак маънавият енгилмас куч”. Т.- 2008-й.
4. И.А.Каримов. “Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим”. ЎзР. ВМ 2005 йил якунларига бағишланган маърузаси. 10 феврал, 2006 й
5. И.А.Каримов. “Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор”. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг бешинчи ялпи мажлисидаги маъруза. Халқ сўзи. 2006 йил. 25 феврал.
6. Ўзбекистон Республикаси ВМ нинг қарори "2010 йилгача почта алоқаси шохобчаларини замонавийлаштириш, ахборот-коммуникация техноло-гиялари негизида хизматларнинг янги турларини жорий этиш ва ривож-лантириш дастури тўғрисида" 2005 йил 19 май, 128-сон. Т. 2005й.
7. “Ахборот технологиялари соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси ВМнинг Қарори. “Халқ сўзи”. 3 июн, 2005 й.
8. Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi. Akbarov Davlatali Egitaliyevich. Toshkent – “O'zbekiston markasi” nashriyoti – 2009
9. Axborot xavfsizligi. S.K.G'aniyev, M.M. Karimov, K.A.Toshev. Toshkent – “ALOQACHI” – 2008
10. Д. Складов. Искусство, защиты и взлома информации. Санкт-Петербург. БХВ-Петербург. 2004.

11. Роберт Чёрчхаус. Коды и шифры. Москва 2006.
12. В. В. Ященко. Введения в криптография. Москва 2006.
13. Ж. Брассар. Современная криптология. Москва 2006.
14. В. Громов, Г.А. Васильев Энциклопедия компьютерной безопасности. Москва 2007.
15. Баричев С., Гончаров В.В., Серов Р.Е. Основы современной криптологии. Москва. Горячая линия. Телесом 2001 г/
16. Ганиев С.К., Каримов М.М. Ҳисоблаш тизимлари ва тармоқларида информация ҳимояси: Олий ўқув юрт. талаб. учун ўқув қўлланма.- Тошкент давлат техника университети, 2003. 776.
17. Алферов А.П., Зубов А.Ю., Кузьмин А.С., Черемушкин А.В. Основы криптографии.–М.: Гелиус АРВ, 2001.– 480 с.
18. А. Исмоилов, Қ. Усмонов. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. Самарқанд – 2010
19. Raximov O.D. Hayot faoliyat xavfsizligi. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent 2012. 535 bet
20. О.Қудратов, Т. Ганиев. Ҳаётини фаолият хавфсизлиги. Тошкент, 2004 й.
21. Х.Раҳимова ва бошқалар. Меҳнатни муҳофаза қилиш. Тошкент, 2004 й.
22. М.А.Қудратов ва бошқалар. Ҳаётини фаолият хавфсизлиги (маъруза курси). Тошкент, 2005й.
23. С.С.Ғуломов ва бошқалар. “Ахборот технологиялари ва тизимлари”. Т.:, 2000й.
24. С.С.Ғуломов ва бошқалар. “Иқтисодий информатика”. Т.:, 1999.
25. Sh.Nazirov, R.Qobilov “Kompyuter va ofis jihozlaridan foydalanish” Т. 2007у.

Internet Web-saytlari

1. <http://www.search.re.uz> - O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.
2. <http://www.ictcouncil.gov.uz>- Kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Maxkamasi muvofiq lashtiruvchi Kengashining sayti.
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.uza.uz>
5. <http://www.my.gov.uz>
6. <http://www.ziyonet.uz>
7. <http://www.google.ru>
8. <http://www.uz>
9. <http://www.e-books.uz>
10. <http://www.tuit.uz>
11. <http://www.id.uz>
12. <http://www.e-library.qmii.iz>
13. <http://www.kitob.uz>
14. <http://www.ref.uz>
15. <http://www.intuit.ru>
16. <http://www.scriptic.ru>
17. <http://www.webacademy.com>
18. <http://www.pacificwebart.com>